

1-jadval
O'zbekistonda rekreatsion xizmatlar bozorining SWOT tahlili

Kuchli tomonlar	Zaif tomonlar
1. Rekreatsiya obyektlari mavjud bo'lgan hududlarning yuqori geografik va tabiiysalohiyati; 2. Rekreatsiya obyektlari tarkibida mijozlar uchun turar joylarning mavjudligi; 3. Rekreatsiya obyektlarida turli madaniy-maishiy va dam olish xizmatlarining mavjudligi; 4. Rekreatsiya xizmatlaridan foydalanish uchun o'sib borayotgan real talabning mavjudligi; 5. Rekreatsiya xizmatlarini taklif etuvchi muassasalar va korxonalarda xizmat yo'nalishlari bo'yicha mutaxassislarining mavjudligi.	1. Mavjud yuqori salohiyatdan maksimal darajada foydalanilmaslik; 2. Rekreatsiya obyektlaridagi turar joylarning xalqaro talablarga mos kelmasligi; 3. Mavjud rekreatsiya obyektlari va ularda foydalanish mumkin bo'lgan xizmatlar to'g'risidagi axborotlarning etishmasligi; 4. Rekreatsiya xizmatlari taklif etuvchi obyektlar joylashgan hududlarda zaruriy infratuzilmalar va klasterlarning yetarli darajada shakllanmaganligi va xizmatlar sifatining past darajasi.
Imkoniyatlar	Xatarlar
1. O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yo'nalishlari uchun ichki va tashqi turizmni rivojlantirish tendentsiyasi; 2. Rekreatsion turizm sohasining investitsion jozibadorligini oshirish; 3. Rekreatsion xizmatlar ko'rsatish bazasini kengaytirish imkoniyatlari; 4. Yangi quvvatlarni ishga tushirish va klasterlarni shakllantirish hisobiga yangi ish o'rinlarini yaratish imkoniyati.	1. Davlatning rekreatsiya xizmatlari bozori bilan bog'liq iqtisodiy siyosatining o'zgarishi; 2. Xalqaro axborot tizimlariga qo'shilish natijasida xalqaro bozordagi yetakchi turistik korxonalar bilan raqobatning yuzaga kelishi; 3. Raqobatchilarning paydo bo'lishi natijasida xizmatlar va daromadlarning raqobatchilar o'rtasida taqsimlanishi.

Jahon mamlakatlarining iqtisodiy rivojlanish jarayonida so'nggi yillarda alohida tarmoq yoki sohalarni klasterli yondashuv asosida rivojlantirilishi tadqiqotlar sohasi bo'lgan masalani ko'rib chiqishda bugungi kun holati doirasida tadqiqotlarni talab qiladi. Shuni e'tiborga olgan holda, mamlakatimiz hududlarida turistik-rekreatsiya obyektlaridan samarali foydalanish yo'nalishlaridan biri sifatida rekreatsion xizmatlar klasterlarini shakllantirish asosida xizmatlar bozorini rivojlantirish istiqbolli yo'nalish sifatida e'tirof etilmoqda.

Rekreatsion xizmatlar bozorining hozirgi kundagi holatini tarkibiy jihatdan o'rganib chiqish, ushbu tizimdagi korxonalarning aksariyati klaster shaklida tashkil topmaganligini, aniqroq aytadigan bo'lsak, asosiy xizmatlar atrofida shakllangan xizmatlar talabdan kelib chiqqan holda mustaqil va stixiyali tarzda shakllanganligini ko'rsatadi. Chunki, barcha rekreatsiya obyektlari atrofida shakllangan infratuzilma tizimlari alohida, bir-biri bilan hamkorlikda ish olib bormaydigan va tizim holatida shakllanmagan holda faoliyat olib boruvchi tuzilmalar ko'rinishida shakllangan. Bu tuzilmalarning o'z quvvatlarini asosiy xizmat quvvatlariga bog'lanmaganligi, bir tomondan, ularning qisman noaniq bozorga ishlashiga olib kelsa, ikkinchi tomondan rekreatslarning ushbu mahsulot va xizmatlarga bo'lgan talabining qondirilishida uzilishlar yuz berishi natijasida rekreatsiya obyektlari xizmatlarini taklif etuvchi korxonalarning «jozibadorlik» darajasi pasayishiga olib keladi.

Yuqoridagi holatlarni hamda rivojlangan mamlakatlardagi rekreatsion xizmatlar klasterlari faoliyatidagi tajribalarni hisobga olgan holda tadqiqotda alohida tarkibiy tuzilishga ega rekreatsion xizmatlar klasterini shakllantirish taklif etildi.

Taklif etilayotgan klasterning mulkiy asosini bir necha shaklda shakllantirish yo'llari mavjud.

Birinchi shakl. Klasterning barcha bo'g'inlari bir tadbirkorning mablag'lari asosida tashkil etilganda, asosiy xizmatlar bilan infratuzilma tizimlari faoliyatni bir-birining ko'rsatkichlaridan kelib chiqqan holda tashkil etadi.

Ikkinchi shakl. Klasterning alohida tizimlari alohida tadbirkorlar mulki asosida tashkil etiladi va faoliyat ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 20 oktyabrdagi "Davlat- xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"¹⁸gi PQ-3980- sonli qaroridan kelib chiqib, rekreatsion xizmatlar klasteri davlat hamda xususiy sheriklar mablag'lari ishtirokida shakllantiriladi.

Bunda, birinchidan, klaster moliyaviy faoliyatida risklar taqsimlansa, ikkinchidan, sohani rivojlantirish borasidagi dasturlarning amalga oshirili-shida davlat bevosita ishtirok etadi. Ikkinchidan, rekreatsion obyektlarni yaratish uchun sarflangan mablag'larning qaytish darajasi nisbatan sekin bo'lgan sharoitda tadbirkorlar faoliyati to'g'ridan-to'g'ri davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadi va davlat tadbirkorligi ham yuz beradi. Taklif etilayotgan mexanizmda klasterlarni tashkil etish uchun moliyaviy resurslarning shaklla-nishi va taqsimlanish mexanizmi ham umumiy holda ko'rsatib o'tilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 30.12.2024 yildagi 915-son "Turistik klasterlar faoliyatini tashkil etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida" qaroriga ko'ra, turistik klaster maqomi kompleks turistik xizmatlar hamda turistning va ekskursantning ehtiyojlarini qanoatlantirish uchun zarur bo'lgan boshqa qo'shimcha xizmatlar ko'rsatuvchi mustaqil tashkilotlar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlar majmuiga beriladi.

Turistik klasterlar belgilangan tartibda turistik klaster maqomi to'g'risidagi guvohnomani olgan paytdan boshlab tashkil etilgan hisoblanadi.

Turizm qo'mitasi turistik klaster maqomini berish bo'yicha vakolatli organ hisoblanadi.

Bunda, ariza beruvchi elektron shaklda yoki pochta orqali belgilangan shakldagi ariza bilan vakolatli organga murojaat qiladi.

Turistik klasterlarni tashkil etish va turistik klaster maqomini olish uchun tadbirkorlik subyektlari quyidagi talablarga javob berishi lozim, jumladan:

turistik klaster faoliyati turoperator – mehmonxona – transport – xizmatlarini ko'rsatish bilan to'liq qamrab olinganligi;

turistik klaster hududida sig'imi kamida 40 nafar mehmon uchun mo'ljallangan joylashtirish vositasining mavjudligi;

turistik klaster hududida mahalliy hunarmandchilik mahsulotlarini (esdalik sovg'alari) sotish shoxobchalari (kamida bitta savdo nuqtasi) mavjudligi.

Xulosa: Ilmiy tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Respublika iqtisodiyotida kelajakda katta salohiyatga ega bo'lgan tarmoqlardan biri turizm infratuzilmasidir. Bu sohaga e'tiborning qaratilishi respublika ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida juda katta ahamiyatga ega bo'lgan, turizm orqali dunyoni bilish, boshqa mamlakatlarning faol aholisini bu erlarga jalb qilish, mamlakat g'aznasiga valyuta tushirish va shu orqali aholining turmush farovonligini yaxshilashda katta imkoniyatlar tug'diradi.

2. O'zbek turizmida xorijiy investitsiyalarga alohida hurmat bilan qaralar ekan, soha oldida turgan muammolarni muvaffaqiyatli hal etish uchun xorijiy investitsiyalar ichki investitsiyalarga "qo'shimcha" bo'lishi lozimligini alohida ta'kidlash zarur. Faqat shu holdagina ular turizmni rivojlantirishga rag'batlantiruvchi ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bundan tashqari, jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar hajmi deyarli hech qachon milliy iqtisodiyotdagi jami investitsiyalarning 10-12 % dan oshmaydi.

Turizm sohasiga xorijiy investitsiyalar quyidagi afzalliklarga ega:

yaxlit holda turizm iqtisodiyotiga xorijiy investitsiyalarning ijobiy ta'sir ko'rsatish;mamlakat iqtisodiyotining noishlab chiqarish sektoriga to'g'ridan-to'g'ri kapital oqimlarining ko'payishiga erishish;turizm sohasida mahalliy tadbirkorlikning o'sishini ta'min etish;xalqaro raqobatbardoshlikni oshirish; aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratilishini rag'batlantirish; aholining turmush va madaniy darajasini yaxshilash; mehnat resurslari (ta'lim tizimi va turistik kadrlarni tayyorlash); boshqaruv va

texnologik sohalarda nou-xaularga ega bo'lish. Xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay rejim yaratish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, himoya qilish va ulardan foydalanish, xorijiy investorlarga mamlakatda barqarorlik, kafolatlar va kamsitmaslik shart-sharoitlarini ta'minlash sohasida davlat siyosatida tub o'zgarishlarni amalga oshirish talab etiladi.

3. Xorijiy sarmoyadorlar uchun qulay rejim yaratish maqsadida xorijiy investitsiyalarni jalb etish, himoya qilish va ulardan foydalanish, xorijiy investorlarga mamlakatda barqarorlik, kafolatlar va kamsitmaslik shart-sharoitlarini ta'minlash sohasida davlat siyosatida tub o'zgarishlarni amalga oshirish talab etiladi.

Turizm infratuzilmasiga investitsiyalarni oshirishning muhim qadami bu jarayonga sayyohlik tadbirkorlarini keng jalb etish uchun chinakam qulay investitsiya muhitini yaratish bo'lishi kerak. Avvalo, u kredit qaytarish, moliya-kredit muassasalari kafolat tizimini rivojlantirish, mulk huquqlari daxlsizligi, chet ellik investorlarga dividendlarni chet elga o'tkazish qoidalarini soddalashtirish, foydaga nisbatan imtiyozli soliq siyosati, shu jumladan, (uch yildan yetti yilgacha) uzoq muddatli asosda imtiyozli kredit siyosatini amalga oshirish taalluqlidir turizm moddiy bazasini yanada rivojlantirish, va boshqalar.

4. Boshqa mamlakatlarda klaster tuzilmalarining amalda qo'lla-nilishi shundan dalolat beradiki, moliya-kredit tashkilotlari, tijorat banklari, investitsiya kompaniyalari va turli fondlar klaster jarayonlarining faol ishtirokchilari sifatida maydonga chiqishlari mumkin. Bu bizga investitsiya loyihalarini amalga oshirish, qo'shimcha moddiy va resurs bazasini jalb qilish imkonini beradi, bu holat bugungi kunda turistik xizmatlar bozor inqirozni boshidan kechirayotgan bir paytda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

5. Turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun asosiy omil bu kadrlarning bilimi va tajriba salohiyatidir. Hozirda respublikada turistik yo'nalishlarni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar mavjud bo'lsa ham juda kam yo'nalishlar ishlab chiqilgan. Bu yo'nalishlar faqat "Buyuk Ipak Yo'lida" joylashgan shaharlarga qaratilgan. Lekin respublikada turistlarning ko'rishi va dam olishlari uchun tarixiy va xushmanzara joylar ko'p. Faqat ularni yuqori darajada tanishtirish, yangi yo'nalishlar tizimi va turistlarni o'sha joylarga joylashtirish yo'llari ishlab chiqilishi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Papanek, G. F. (1973). Aid, foreign private investment, savings, and growth in less developed countries. *Journal of political Economy*, 81(1), 120-130.
2. Koufodontis, I., Angelis, V., Mavri, M., & Gaki, E. (2007, April). Tourism and Regional Development. In *Regional Studies Association International Conference: Regions in Focus*.
3. Calero, C., & Turner, L. W. (2020). Regional economic development and tourism: A literature review to highlight future directions for regional tourism research. *Tourism Economics*, 26(1), 3-26.
4. Matkuliyeva, S., & Begimqulov, J. (2024). Marketing asosida turistik xizmatlarni rivojlantirishning hududiy jihatlari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*, 2(2), 155-164.

TURIZM SIYOSATI XALQ DIPLOMATIYASINING MUHIM YO'NALISHI SIFATIDA

Boymatov Farhodjon Ziyodqo'zi o'g'li

Qo'qon DPI Huquq ta'lim kafedrası o'qituvchisi s.f.d (PhD)

Boymatovfarhod0402@gmail.com

Roziqov Abdurasul Azizjon o'g'li

QDPI Pedagogika va ijtimoiy fanlar fakulteti tarix yo'nalishi 1 kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada turizm siyosatining xalq diplomatiyasidagi o'rni tahlil qilinadi. Turizm xalqaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatning yumshoq kuchini oshirish va milliy brendni shakllantirishda muhim omil sifatida ko'riladi. O'zbekiston misolida turizm siyosatining diplomatik jarayonlarga ta'siri, mavjud muammolar va ularning yechimlari ilmiy asosda ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: turizm siyosati, xalq diplomatiyasi, yumshoq kuch, xalqaro aloqalar, milliy imij.

Аннотация: В данной статье анализируется роль туристической политики в народной дипломатии. Туризм рассматривается как важный фактор в укреплении международных отношений, повышении «мягкой силы» страны и формировании национального бренда. На примере Узбекистана рассмотрены влияние туристической политики на дипломатические процессы, существующие проблемы и их решения на научной основе.

Ключевые слова: туристическая политика, народная дипломатия, мягкая сила, международные отношения, национальный имидж.

Annotation: This article analyzes the role of tourism policy in public diplomacy. Tourism is considered an important factor in strengthening international relations, enhancing a country's soft power, and shaping its national brand. Using Uzbekistan as an example, the impact of tourism policy on diplomatic processes, existing challenges, and their solutions are examined from a scientific perspective.

Keywords: tourism policy, public diplomacy, soft power, international relations, national image.

Kirish: Bugungi globallashuv sharoitida davlatlar o'zaro munosabatlarini nafaqat an'anaviy diplomatik kanallar orqali, balki xalq diplomatiyasi vositasida ham rivojlantirmoqda. Xalq diplomatiyasining muhim tarkibiy qismi sifatida turizm siyosati mamlakatlararo madaniy, iqtisodiy va siyosiy aloqalarni mustahkamlashda katta ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasi davlatning "yumshoq kuch" (soft power) strategiyasining ajralmas qismi bo'lib, mamlakat imijini shakllantirish va xalqaro maydondagi nufuzini oshirishga xizmat qiladi.

O'zbekistonning boy tarixiy-madaniy merosi, geosiyosiy joylashuvi va iqtisodiy salohiyati turizm sohasining rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. So'nggi yillarda O'zbekiston hukumati turizmni rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirib, uni davlatning tashqi siyosatining muhim yo'nalishlaridan biriga aylantirdi. Ushbu maqolada turizm siyosatining xalq diplomatiyasidagi o'rni tahlil qilinib, uning xalqaro aloqalarga ta'siri, mavjud muammolar va ularning yechimlari ilmiy asosda ko'rib chiqiladi.

Maqolaning maqsadi – turizm siyosatini xalq diplomatiyasining muhim yo'nalishi sifatida tahlil qilish, uning xalqaro aloqalar rivojlanishidagi o'rnini ochib berish va O'zbekiston misolida mavjud muammolarni aniqlab, ularning yechimlarini taklif etish.

Tadqiqotning dolzarbligi – turizmning faqat iqtisodiy foyda emas, balki xalqaro do'stlik va hamkorlikni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan bog'liq. Turizm siyosatini samarali olib borish orqali davlatlar o'z imijini yaxshilash, xorijiy investorlarni jalb qilish va xalqaro maydondagi nufuzini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

"Ommaviy diplomatiya" atamasi yaqinda, 80-yillarda ijtimoiy-siyosiy leksikonda mustahkam o'rin egalladi. Ammo bu hodisaning kelib chiqishi uzoq o'tmishda topilgan. Marko Polo, Afanasiy Nikitin va boshqa ko'plab sayohatchilar, dengizchilar, savdogarlar o'z xavf-xatarlari bilan uzoq mamlakatlarga tashrif buyurishdi, o'z mamlakatlari haqida ma'lumot olib kelishdi, xorijiy mamlakatlarning siyosatchilari, savdogarlari va olimlari bilan shaxsiy aloqalar o'rnatdilar. Ular olgan ma'lumotlar va ular o'rnatgan aloqalar odatda diplomatiya tomonidan mamlakatlar o'rtasida rasmiy aloqalarni o'rnatish uchun ishlatilgan.

Bugungi kunda O'zbekiston dunyoning ko'plab respublikalari, xususan, Turkiya bilan har tomonlama aloqalar o'rnatgan. Xususan, 2018-yil boshidan buyon Istanbul, Izmir, Bursa, Shanliurfa, Adana, Oksaray va Niyde shaharlari hokimliklarida, shuningdek, Savdo-sanoat palatalarida "O'zbekiston kunlari" o'tkazilmoqda. mamlakatimizda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Turkiya jamoatchiligi va mahalliy ishbiarmon doiralari xorijiy sarmoyadorlar va sayyohlar uchun yaratilgan qulay imkoniyatlar bilan tanishtirildi.

O'zbekiston turizm siyosati orqali Markaziy va Sharqiy Osiyo davlatlari bilan xalq diplomatiyasini o'rnatishi, jahon turizm bozoriga yangi, hali keng kashf etilmagan ziyoratgohlar, xavfsiz-osoyishta muhiti bilan sayyohlarni keng jalb etish mumkinligini ko'rsatmoqda. O'zbekiston Markaziy va Sharqiy Osiyo davlatlaridan tashrif buyuruvchi turistlar uchun alohida jozibadorlik ega. Ayniqsa, Turkiyalik sayyohlar uchun, birinchidan turkiyalik fuqorolarning ko'pchiligi O'rta Osiyoni xususan O'zbekistonni ota yurt sifatida qabul qilishadi, ikkinchidan turk xalqining diniy e'tiqodi asosini tashkil etuvchi tasavvuf ilmining ulug' ulamolari aynan O'zbekiston hududida yashab ijod etgani alohida ahamiyat kasb etadi.

“Turkiyadan yurtimizga kelayotgan turistlar soni qisqa muddatda bir necha barobarga oshgani va 2018-yilning ilk uch oyidagi ma’lumotlarga ko’ra, uzoq o’lkalar orasida Turkiyadan mamlakatimizga kelayotgan sayyohlar soni jihatidan birinchi o’ringa ko’tarilganini e’tirof etdi. Misol uchun, 2017-yil mart oyida O’zbekistonga kelgan turkiyalik sayyohlar soni 2 ming kishi atrofida bo’lgan bo’lsa, 2019-yil ushbu raqam 6 mingga yetgani aytib o’tildi.”⁵⁹

Oxirgi yillarda Turkiya turizm yo’nalishida yetakchi davlatga aylandi. Turkiyaning turizm bo’yicha ma’lumotlari tahlil qilinganda, pandemiyagacha bo’lgan davrda turistlar soni qariyb 52 millionga yetgani kuzatiladi. 2012-2021-yillarda jon boshiga o’rtacha turizm xarajati **650-840 AQSH dollar** atrofidadir. 2019-yilda turizmdan olinadigan daromad **34,5 mlrd. AQSH dollariga** yetgani qayd etilgan.

Turkiya turizm sohasida sog’liq turizmi ham muhim o’rin egallaydi. Pandemiya tufayli harakatchanlik pasayishiga qaramay, 2020-yilda Turkiyaga davolanish va sog’liq xizmatlari uchun tashrif buyurgan turistlar soni **1200** ming nafarni tashkil etgan. 2020 yilda soch ekish xizmati bo’yicha Turkiyaning jami daromadi **1,3 mlrd. dollarni** tashkil etgan. So’nggi yillarda O’zbekistondan Turkiyaga davolanish maqsadida tashrif buyuruvchilar sonida sezilarli ortish kuzatilgan. 2014-yilda **1034** nafar O’zbekiston fuqarosi davolanish maqsadida Turkiyaga tashrif bo’rgan bo’lsa, 2020-yilda bu ko’rsatkich **5333** nafarga ortgan.⁶⁰

Hozirda turizm vositasi orqali “xalq diplomatiyasi” rivojlanmoqda, davlatlar va millatlar o’rtasidagi qo’shnihilik, do’slik-hamkorlik, qon-qarindoshlik aloqalari rivojlanmoqda. O’zbekiston o’tmishda bo’lgani singari yangi uyg’onish davriga, tamaddunlar chorrahasiga, tinchlik beshigiga, dunyo tanigan va o’zini jahonga tanitgan muhim turizm markaziga aylanib bormoqda. Bu kabi buyuk maqsadlarga yetishda Prezident Shavkat Mirziyoyev tomonidan olib borilayotgan qat’iy siyosiy iroda, aniq o’ylangan strategik yondashuv, xalq dardi bilan yonib yashash muhim ahamiyat kasb etmoqda.

“Shuni ham ta’kidlash lozimki, Turkiya musulmonlari uchun O’zbekiston tuproqlari alohida ahamiyatga ega. Turkiyada idora qoshida diniy turizm bilan mashg’ul bo’lgan alohida Sayyohlik shirkati faoliyat ko’rsatadi. Turklar uchun ikkinchi Hijoz kabi bo’lgan O’zbekistonga diniy turizm safarlarini tizimli tarzda amalga oshirish muhim vazifalardan biridir.”⁶¹

“Turkiya Madaniyat va turizm vazirligining Xalqaro aloqalar boshqarmasi boshlig’i Ramzon Chokchevikning ta’kidlashicha: O’zbekistonda Turkiya fuqarolari uchun 30 kun muddatga vizasiz rejim joriy etish bo’yicha qaror qabul qilinganini turizm sohasidagi ikki tomonlama hamkorlikka sezilarli turtki bergan tarixiy qadam bo’ldi, desak hech ham mubolag’a bo’lmaydi. Bunday qarorning qabul qilinishi savdo-iqtisodiy, investitsiya va turizm sohalarida yangi imkoniyatlar yaratishga xizmat qilmoqda va eng asosiysi, qardosh xalqlar o’rtasidagi do’slik rishtalarini yanada mustahkamlab, turk fuqarolarining O’zbekistonga tashrif buyurishlari uchun keng yo’l ochib berdi.”⁶²

2021-yil 24-iyun kuni Qo’qon shaxrida Turkiy tilli davlatlar hamkorlik kengashining VI yig’ilishi [bo’lib o’tidi](#), unda Qo’qon shahrini Turkiy kengashining ilk «Turizm poytaxti» sifatida nomlash taklif qilindi, u barcha ishtirokchi davlatlar tomonidan ma’qullaidi.

Turkiy davlatlarning til, din, ijtimoiy kelib chiqishi va madaniyatlarining tarixan uzviyligi Turkiy Kengash tashkiloti faoliyatining garovidir. Shu sababdan turizm aloqalari orqali xalq diplomatiyasini mustahkamlash O’zbekistonning bugungi strategik vazifalardan biriga aylangan.

Turkiy xalqlar odatiga ko’ra — qarindoshlik aloqalarini ushlab turish uchun tez-tez mehmon bo’lish, o’zaro yo’qlab turish, an’anasi ota-bobolarimizdan meros bo’lib qolgan. Bugun qardoshlik

⁵⁹ **Туркия - Ўзбекистон : туризм соҳаси ҳамкорлигининг муҳим тармоғи.**
<https://kknews.uz/uz/16114.html>

⁶⁰ O’zbekiston - Turkiya: savdo-iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. // 29.03.2022. <https://review.uz>.

⁶¹ Новости Турсии.ру. - [Электронный ресурс]. - Режим доступа: <http://www.turkishnews.ru> (Дата обращения: 03.11.2021).

⁶² O’zbekiston fuqarolariga Turkiyadagi vizasiz rejim 30 kundan 90 kungacha uzaytirildi. // 28 07 2021.
<https://resmigazete.gov.tr/eskiler/2018/11/20181111>

aloqalarni mustahkamlash va bir-birlarining uylarida mehmon bo'lish xalq diplomatiyasining asosiy ustunlaridan biridir.

Xalq diplomatiyasini rivojlanishida qo'shni davlatlardan qarindosh-urug'larini ko'rish uchun kelayotgan turistlarning xissasi katta bo'lib uni quyidagi misollar bilan ko'rib o'tishimiz mumkin. Xususan, 2020-yilda O'zbekistonga kelgan chet el fuqarolarining umumiy oqimida qarindoshlarini ko'rish uchun tashrif buyurganlar ASOSIY QISM:ni tashkil qiladi. So'nggi 3 yilda ushbu maqsadda kelganlarning ulushi 77-80% dan 67% gacha pasayganiga qaramay, hozirgacha salmoqli miqdorni tashkil qilmoqda. Bu maqsadda tashrif buyurganlarning aksariyati qarindoshlarinikida yashab, mehmonxonalar xizmatidan foydalanmasa-da, ziyoratgohlar, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qo'qon singari sayyohlik markazlariga borishadi. Shu tariqa sayoxat qilish jarayonida nafaqat yuqoridagi shaxarlar turizm infratuzilmasi bilan tanishadi balki unga yaqin bo'lgan qo'shni viloyatlarga ham tashrif buyurishi mumkin bo'ladi.

“Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari uchrashuvi Kaspiy dengizining sharqiy qirg'og'ida joylashgan “Avaza” - milliy sayyohlik hududida 2021-yil 6-avgust kuni bo'lib o'tdi.”⁶³ Bundan ko'zlangan asosiy maqsad, Markaziy Osiyo davlatlari xalqlarining o'zaro yaqinlashtirish, ya'ni madaniy, tarixiy obidalarini ziyorat qilish va umuman turizm sohasini yanada rivojlantirish orqali madaniy aloqlarni va xalq diplomatiyasini mustahkamlashdir.

Xulosa:Fikrimizcha, mintaqa mamlakatlari o'rtasida turizmni yo'lga qo'yilishi, madaniy-gumanitar aloqalar, do'stlik va yaxshi qo'shnilik munosabatlarini mustahkamlashga olib keladi. Bu Markaziy Osiyodagi mintaqaviy hamkorlikni jadallashtirishning asosiy shartlaridan biri sifatida e'tirof etildi. Shuningdek, madaniy-gumanitar muloqotni izchil davom ettirish, mamlakatlar o'rtasida madaniyat kunlari va turli madaniy tadbirlarni tashkil etish, ta'lim va sayyohlik sohasidagi almashuvlarni rivojlantirish lozim. Madaniy aloqalar har doim va dunyoning barcha mintaqalarida doimo rivojlanib kelgan. Madaniyatlarining o'zaro ta'siri madaniy-tarixiy jarayonlar, xalqaro munosabatlarning ajralmas qismidir. Zamonaviy bosqichda ularning sifat jihatidan o'zgarishi global o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Turizm hozirgi zamonda global hodisaga aylanib qolgan jamiyatning har tomonlama barqaror rivojlanishining kafolatiga aylandi.

Bundan tashqari, turizm siyosati xalq diplomatiyasini yanada mustahkamlash uchun umumiy maqsadlarga erishish uchun hukumatlar va xususiy sektor o'rtasida elektron aloqalarni rivojlantirish zarur deb hisoblaymiz. Bu borada turistlarning sayohat qilishdagi to'siqlarni minimallashtirish va xavfsiz muhitda xalqaro sayyohlik harakatlarini rag'batlantirish kerak. Shu maqsadda har bir mamlakatda sayohat qilishning asosiy to'siqlarini yengish uchun oqilona va uyg'unlashtirilgan choralarni ko'rish zarur. Turizm odamlar o'rtasidagi aloqalarni amalga oshirish uchun global kommunikativ makonni shakllantirishga imkon beradi. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, hudud brendi ushbu jamiyatning biznes va turizm uchun ochiqligi haqida o'ziga xos xabar beradi. Shuning uchun turistik hududlarning brendingi jamoatchilik fikriga yumshoq ta'sir ko'rsatib, xalq diplomatiyasi samaradorligini oshirishga yordam beradi. Ba'zi olimlar hatto “turistik diplomatiya” atamasini kiritib, uni davlatga o'zi haqida ma'lum bir tarzda jamoatchilik fikrini shakllantirishga yordam beradigan vosita sifatida tushunishadi. “Albatta, zamonaviy hayotning boshqa ko'plab sohalari kabi turizm sohasi ham hozir siyosiyashtirilmoqda; Bu hodisa dunyoning aksariyat mamlakatlari uchun xosdir. Ichki va xalqaro turizmning davlat tizimi nafaqat odamlarning dam olishi va hordiq chiqarishiga qaratilgan. Ichki turizm odamlarga o'z mamlakati, uning mintaqalari, madaniy xususiyatlari bilan yanada kengroq va chuqurroq tanishish imkonini beradi.”⁶⁴ O'z navbatida, kirish va chiqish bo'lishi mumkin bo'lgan xalqaro turizm davlatning chet elda ijobiy imidjini targ'ib qilishga xizmat qiladi, ushbu davlat fuqarolarining fikrlash tarzi, ularning siyosiy va madaniy hayoti, qadriyat intilishlari haqida g'oyalarni shakllantiradi.

O'zbekistonda “kongress turizmi”ni rivojlantirish orqali sayyohlar oqimining ko'payishi va xalqaro aloqalar tizimining yanada mustahkamlanishi ilmiy jihatdan asoslab berilgan. Shunga ko'ra,

⁶³ Markaziy Osiyo davlat rahbarlari sammiti avgustda Turkmanistonda bo'lib o'tadi. <https://sputniknews-uz.com/24.07.2021>

⁶⁴ Черевичко Т.В. Туризм как инструмент публичной дипломатии // Известия Саратовского государственного университета им. Н.Г. Чернышевского. 2014. Сер. История. Международные отношения. Вып. 4. С. 93-95.

Samarqand, Buxoro va Toshkentda xalqaro konferensiya, kongress va forumlar o'tkazish bo'yicha ishlarni yanada takomillashtirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. KKNews. (n.d.). Turkiya – O'zbekiston: Turizm sohasi hamkorlikning muhim tarmog'i. Retrieved from <https://kknews.uz/uz/16114.html>
2. Review.uz. (2022, March 29). O'zbekiston - Turkiya: Savdo-iqtisodiy hamkorlik istiqbollari. Retrieved from <https://review.uz>
3. Новости Турции.ру. (n.d.). Новости Турции. Retrieved November 3, 2021, from <http://www.turkishnews.ru>
4. Resmi Gazete. (2021, July 28). O'zbekiston fuqarolariga Turkiyadagi vizasiz rejim 30 kundan 90 kungacha uzaytirildi. Retrieved from <https://resmigazete.gov.tr/eskiler/2018/11/20181111>
5. Sputnik News Uzbekistan. (2021, July 24). Markaziy Osiyo davlat rahbarlari sammiti avgustda Turkmanistonda bo'lib o'tadi. Retrieved from <https://sputniknews-uz.com>
6. Cherevichko, T. V. (2014). Turizm kak instrument publichnoy diplomatii. Izvestiya Saratovskogo gosudarstvennogo universiteta im. N. G. Chernyshevskogo. Seriya: Istoriya. Mezhdunarodnye otnosheniya, (4), 93–95.

TURIZM JADAL RIVOJLANTIRISHDA MEHMONDO'STLIK SANOATINING AHAMIYATI

Yulchiyev Asiljon Ortiqali o'g'li

Farg'ona davlat universiteti,
Iqtisodiyot fakulteti katta o'qituvchisi i.f.f.d
asilbekyulchiev@gmail.com

Yo'ldashova Osiyoxon Abdivali qizi

Farg'ona davlat universiteti magistranti
osiyokhonyoldashova@gmail.com

Anotatsiya: Turizm sohasining jadal rivojlanishida mehmondo'stlik sanoati muhim o'rin tutadi. Mehmonxonalar, restoranlar, transport xizmatlari va boshqa turistik infratuzilmalar sayyohlar uchun qulay sharoit yaratib, ularning sayohat tajribasini yaxshilashga xizmat qiladi. Mehmondo'stlik sanoati nafaqat iqtisodiy o'sishga, balki madaniy almashinuvga ham turtki beradi. Ushbu sanoat turizmni rivojlantirishning asosiy omillaridan biri bo'lib, yangi ish o'rinlarini yaratish, milliy brendni mustahkamlash va mintaqaviy investitsiyalarni jalb qilishga yordam beradi. Shu sababli, mehmondo'stlik xizmatlarini takomillashtirish va xalqaro standartlarga moslashtirish turizmning yanada barqaror rivojlanishiga zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: Mehmondo'stlik sanoati, mehmonxona infratuzilmasi, mehmonxona biznesi, xizmat ko'rsatish sifati.

Kirish: Turizm bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining eng jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Sayyohlik sohasi mamlakatlarning iqtisodiy rivojlanishiga, madaniy merosini targ'ib qilishga va xalqaro aloqalarni mustahkamlashga katta hissa qo'shmoqda. Ushbu jarayonda mehmondo'stlik sanoati alohida o'rin tutadi. Mehmondo'stlik sanoati – bu mehmonxonalar, restoranlar, transport va boshqa turistik xizmatlarni o'z ichiga olgan keng qamrovli soha hisoblanib, u sayyohlarga qulaylik yaratish, ularning ehtiyojlarini qondirish va sifatli xizmat ko'rsatish orqali turizmning rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu sanoatning yuqori darajada rivojlanishi mamlakatning turistik salohiyatini oshirishga hamda xalqaro maydonda raqobatbardoshligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Shu bois turizm va mehmondo'stlik sanoatining o'zaro bog'liqligi, ularning rivojlanish omillari hamda bu jarayonning iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyati chuqur tahlil qilinishi lozim. Ushbu tadqiqotda mehmondo'stlik sanoatining turizmga ta'siri, uning rivojlanish istiqbollari va muammolari o'rganiladi. Mehmondo'stlik sanoati turizmning ajralmas qismi bo'lib, uning rivojlanishi sayyohlik sohasining o'sishiga bevosita ta'sir qiladi. Mehmonxonalar, restoranlar, transport va ko'ngilochar xizmatlarning sifati sayyohlarning tajribasini yaxshilashga yordam

beradi. Yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish sayyohlarning mamnunligini oshirib, ularni yana qaytib kelishga undaydi.

Asosiy qism: Mehmondo'stlik sanoatining rivojlanganligi turistik hududlarning jozibadorligini oshirishga ham xizmat qiladi. Zamonaviy mehmonxonalar, milliy taomlar taklif qiluvchi restoranlar va yuqori sifatli xizmatlar sayyohlarni jalb qilishi natijasida ushbu hudud mashhur turistik yo'nalishga aylanadi. Shu bilan birga, mehmondo'stlik sohasi yangi ish o'rinlari yaratib, mahalliy aholi bandligini oshiradi. Mehmonxona va restoranlar orqali keladigan daromadlar mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatib, davlat byudjetiga soliq tushumlarini oshirishga yordam beradi. Bundan tashqari, mehmondo'stlik sanoati milliy an'analar va urf-odatlarini targ'ib qilishda muhim rol o'ynaydi. Sayyohlarga mahalliy taomlar, urf-odatlar va madaniyatni namoyish qilish orqali madaniy almashinuv rivojlantiriladi. Bu esa nafaqat turizmni, balki mamlakatning madaniy merosini ham kengroq targ'ib etishga xizmat qiladi.

Mehmondo'stlik sanoati rivojlangan hududlarda turistik infratuzilma ham yaxshilanadi. Transport, mehmonxona, restoran va dam olish maskanlari kabi ob'ektlarning rivojlanishi nafaqat sayyohlar, balki mahalliy aholi uchun ham qulayliklar yaratadi. Umuman olganda, mehmondo'stlik sanoati turizmning har tomonlama rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Sifatli va innovatsion mehmondo'stlik xizmatlari turistik salohiyatni oshirib, mamlakatni jahon turizm bozorida raqobatbardosh qiladi. Shu sababli, mehmondo'stlik sanoatini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar turizmni yanada rivojlantirish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Turizm jadal rivojlantirishda mehmondo'stlik sanoati o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik va sinergiya bugungi kunda ham dolzarb, ham istiqbolli masala hisoblanadi. Ushbu mavzuga oid muhokamada bir necha asosiy jihatlar e'tiborga olinishi lozim:

1. Strategik ahamiyat va iqtisodiy o'sish

Mehmondo'stlik sanoati turizm sohasining asosiy komponenti sifatida nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshirish, balki iqtisodiy o'sish, bandlikni yaratish va milliy imijni mustahkamlashda ham katta rol o'ynaydi. Zamonaviy mehmonxonalar, restoranlar va dam olish markazlari investitsiya oqimini jalb qilib, mahalliy iqtisodiyotning ko'plab tarmoqlariga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu bilan birga, yuqori sifatli xizmatlar orqali xorijiy sayyohlar mamlakatga kelib, yangi tajribalar orttirishlari ham iqtisodiy o'sishga olib keladi.

2. Innovatsiyalar va texnologik yechimlar

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar va innovatsion boshqaruv uslublari mehmondo'stlik sanoatida inqilobiy o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Onlayn bron qilish tizimlari, sun'iy intellekt asosidagi mijozlarga xizmat ko'rsatish va shaxsiylashtirilgan ilovalar nafaqat xizmat ko'rsatish sifatini oshiradi, balki xarajatlarni kamaytirish va jarayonlarni tezlashtirishga yordam beradi. Biroq, bu jarayonlarda texnologik infratuzilma va malakali kadrlar tayyorlash masalalari dolzarb bo'lib qolmoqda.

3. Madaniy meros va barqaror rivojlanish

Turizm va mehmondo'stlik sanoati o'zaro yaqin aloqada bo'lib, madaniy merosni asrash va rivojlantirishni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Tarixiy yodgorliklar va madaniy obidalar sayyohlarni jalb qilishning asosiy omili bo'lib, ular orqali mintaqaning o'ziga xosligi va tarixiy merosi saqlanib qoladi. Shu bilan birga, barqaror turizmni ta'minlash uchun atrof-muhitni asrash, mahalliy an'analarni hurmat qilish va ijtimoiy mas'uliyatni hisobga olish zarur.

4. Qiyinchiliklar va yechimlar

Muhokama jarayonida bir qancha qiyinchiliklar ham e'tibordan chetda qolmasligi lozim:

- Infratuzilmaning yetishmasligi: Ba'zi hududlarda mehmonxona va boshqa turistik obyektlarning sifati hamda soni yetarli emas, bu esa sayyohlar oqimini kamaytirishi mumkin.

- Kadrlar malakasi: Xizmat ko'rsatish sifatini oshirish uchun doimiy ravishda kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish va motivatsiya tizimlarini joriy etish zarur.

- Raqamli transformatsiya: Texnologik yechimlar qo'llanilishida yuzaga keladigan muammolar, ayniqsa, kichik biznes subyektlar uchun qo'shimcha xarajat va malaka talablarini keltirib chiqaradi.

Bunday qiyinchiliklarga qarshi turish uchun davlat va xususiy sektor hamkorligi, innovatsion loyihalar va xalqaro tajriba almashinuvi muhim ahamiyatga ega. Yangi investitsiyalar, davlat tomonidan yaratilgan qulay ishbilarmonlik muhitlari va zamonaviy texnologiyalar yordamida ushbu sohada yanada muvaffaqiyatga erishish mumkin.

5. Kelajak istiqbollari

Mehmondo'stlik sanoatining rivojlanishi turizm sohasining kelajagini belgilovchi omil sifatida ko'riladi. Global miqyosda sayyohlikning raqobatbardoshligini oshirish va innovatsion yechimlar orqali xizmatlar sifatini yanada yuqori darajaga ko'tarish imkoniyatlari mavjud. Shu bilan birga, ekologik va madaniy jihatdan barqaror rivojlanish konsepsiyalarini amalga oshirish, ham milliy, ham mintaqaviy miqyosda raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun asosiy yo'nalishlardan biridir.

Turizm jadal rivojlantirishda mehmondo'stlik sanoati o'zining strategik ahamiyati va ko'p qirrali imkoniyatlari bilan diqqatga sazovor. Sifatli infratuzilma, innovatsion boshqaruv, madaniy meros va barqaror rivojlanish prinsiplarini uyg'unlashtirish orqali mamlakatlar nafaqat milliy darajada, balki xalqaro miqyosda ham raqobatbardosh bo'lishlari mumkin. Shuningdek, mavjud qiyinchiliklarga qarshi samarali yechimlar topish va yangi texnologiyalarni tatbiq etish bu sohaning yanada rivojlanishiga turtki bo'ladi.

Turizmni jadal rivojlantirishda mehmondo'stlik sanoatining ahamiyatini ko'rsatish uchun quyidagi jadvalni taqdim etaman. Ushbu jadvalda mehmondo'stlik sanoatining turizm rivojlanishiga ta'sir etuvchi asosiy omillari, ularning tavsifi va manbalari keltirilgan:

Ushbu jadvalda keltirilgan ma'lumotlar turizmni rivojlantirishda mehmondo'stlik sanoatining qanchalik muhim ekanligini ko'rsatadi. Mehmonxona infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sifati, innovatsion boshqaruv uslublari va madaniy meros kabi omillar sayyohlarni jalb qilish va ularning qoniqishini ta'minlashda katta ro'l o'ynaydi.

1-jadval

Turizmni jadal rivojlantirishda turizmning ahamiyati⁶⁵

Omil	Tavsif
Mehmonxona infratuzilmasi	Mehmonxonalar, restoranlar va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlari sayyohlarni jalb qilish va ularning tajribasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.
Xizmat ko'rsatish sifati	Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifati sayyohlarning qoniqish darajasiga bevosita ta'sir qiladi
Innovatsion boshqaruv uslublari	Mehmonxona boshqaruvida zamonaviy uslublari va innovatsion yondashuvlar xizmat sifatini oshirishga yordam beradi.
Madaniy meros va infratuzilma	Madaniy meros obyektlari va rivojlangan infratuzilma sayyohlarni jalb qilishda asosiy omillardir.

Jadvaldagi har bir omil turizm rivojlanishiga katta ta'sir qiladi.

- Mehmonxona infratuzilmasi — sayyohlarni jalb qilish va turistik markazlarni barqaror rivojlantirish uchun zarur. Mehmonxonalar, restoranlar va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlari sayyohlarni jalb qilish va ularning tajribasini yaxshilashda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Sifatli va qulay turar joylar turistlarning sayohat davomida qulaylikni his qilishini ta'minlaydi. Turizmni rivojlantirishda infratuzilmaning ahamiyati katta. Zamonaviy, yaxshi ta'minlangan mehmonxonalar nafaqat sayyohlarning qulayligini ta'minlaydi, balki mintaqaning umumiy imijini

⁶⁵ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

yaxshilaydi. Bu esa investitsiyalarni jalb qilish va hududda turizm oqimini oshirishga olib keladi. Shu bilan birga, sifatli infratuzilma mahalliy iqtisodiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

- Xizmat ko'rsatish sifati — sayyohlarning turizmni uzoq muddatli rivojlantirishga yordam beradi. Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifati sayyohlarning qoniqish darajasiga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir etadi. Yuqori sifatli xizmatlar turistlarning qayta tashrif buyurish ehtimolini oshiradi va soha reytingini yaxshilaydi. Xizmat ko'rsatish sifati mehmondo'stlik sanoatining eng muhim jihatlaridan biridir. Bu soha mijozlarning birinchi taassurotini shakllantiradi. Mijozlar tomonidan beriladigan onlayn sharhlar, reytinglar va tavsiyalar asosida xizmat sifati turizm salohiyatiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi.

- Innovatsion boshqaruv — mehmondo'stlik sohasida samaradorlikni oshiradi va raqobatbardoshlikni kuchaytiradi. Mehmonxona boshqaruvida zamonaviy uslublar va innovatsion yondashuvlar xizmat sifatini oshirishga va operatsion jarayonlarni optimallashtirishga yordam beradi. Ushbu yondashuvlar orqali xarajatlarni kamaytirish va mijozlarga tezkor xizmat ko'rsatish imkoniyati yaratiladi. Innovatsion boshqaruv uslublari zamonaviy turizm sanoatining muhim qismi hisoblanadi. Texnologik yechimlar, onlayn bron qilish tizimlari, sun'iy intellekt asosida ishlaydigan chatbotlar va boshqa raqamli yechimlar mehmonxona boshqaruvini sezilarli darajada soddalashtiradi.

- Madaniy meros va infratuzilma — turizmning asosiy poydevori bo'lib, uni to'g'ri boshqarish muhimdir. Madaniy meros obyektlari va rivojlangan infratuzilma sayyohlarni jalb qilishda asosiy omillardir. Tarixiy yodgorliklar, madaniy tadbirlar va an'anaviy obidalar mintaqaning o'ziga xosligini ta'minlaydi. Madaniy meros va infratuzilma nafaqat tarixiy va madaniy qadriyatlarni asrashga, balki turizm salohiyatini oshirishga ham katta hissa qo'shadi.

Barcha ushbu komponentlarning muvaffaqiyatli uyg'unlashuvi mamlakatning yoki mintaqaning turizm salohiyatini maksimal darajada oshirishga, milliy imijni yaxshilashga va iqtisodiy o'sishga katta hissa qo'shishga imkon yaratadi. Shu tarzda, turizmni jadal rivojlantirishda mehmondo'stlik sanoati nafaqat xizmatlar sifatini oshirish, balki innovatsiyalar, madaniy boylik va infratuzilma rivojlanishi orqali keng qamrovli ta'sir ko'rsatadi.

Turizmni jadal rivojlantirishda turizmning ahamiyati⁶⁶.

Omil	Tavsif
Mehmonxona infratuzilmasi	Mehmonxonalar, restoranlar va boshqa xizmat ko'rsatish obyektlari sayyohlarni jalb qilish va ularning tajribasini yaxshilashda muhim rol o'ynaydi.
Xizmat ko'rsatish sifati	Mehmonxonalarda xizmat ko'rsatish sifati sayyohlarning qoniqish darajasiga bevosita ta'sir qiladi
Innovatsion boshqaruv uslublari	Mehmonxona boshqaruvida zamonaviy uslublar va innovatsion yondashuvlar xizmat sifatini oshirishga yordam beradi.
Madaniy meros va infratuzilma	Madaniy meros obyektlari va rivojlangan infratuzilma sayyohlarni jalb qilishda asosiy omillardir.

1-rasm. Mehmondo'stlik sanoatining asosiy ustunlari⁶⁷

Rasmda quyidagi asosiy komponentlar aks etgan:

- Mehmondo'stlik Sanoati (Markaziy tugun):

⁶⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

⁶⁷ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Bu soha turizmning barcha yo'nalishlari uchun tayanch hisoblanadi. U nafaqat xizmatlar sifatini, balki iqtisodiy o'sish, bandlik va xalqaro raqobatbardoshlikni ham belgilaydi.

- Mehmonxona infratuzilmasi:

Zamonaviy va qulay turar joy obyektlari, restoranlar va dam olish maskanlari investitsiyalar, iqtisodiy barqarorlik va turistik mintaqalarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu omil turizm oqimini oshirish va sayyohlarning uzoq muddatli qiziqishini ta'minlaydi.

- Xizmat ko'rsatish sifati:

Mijozlarga yuqori darajadagi xizmat ko'rsatish, xodimlarning malakasi va doimiy o'qitish mehmondo'stlik sohasida eng muhim omil sifatida ajralib turadi. Bu komponent sayyohlarning qoniqishi, ijobiy sharhlar va brend imidjini shakllantirishda beqiyos rol o'ynaydi.

- Innovatsion boshqaruv va texnologiyalar:

Sun'iy intellekt, onlayn bron qilish tizimlari, raqamli marketing va avtomatlashtirilgan xizmatlar mehmonxona boshqaruvida samaradorlikni oshiradi. Innovatsion yondashuv xarajatlarni kamaytirish, jarayonlarni tezlashtirish va xizmatlarni shaxsiylashtirishga yordam beradi.

- Madaniy meros va infratuzilma:

Tarixiy obidalar, madaniy tadbirlar va milliy an'analar turistik manzillarga xoslik baxsh etadi. Bu omil mintaqaning o'ziga xosligini mustahkamlash, sayyohlarni jalb qilish va barqaror turizmni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

1. Markaziy oli va sinergiya:

Diagrammada ko'rsatilganidek, mehmondo'stlik sanoati turizmning barcha asosiy komponentlarini o'zaro bog'laydi. Mehmonxona infratuzilmasi va xizmat ko'rsatish sifati orqali foydalanuvchilar birinchi taassurotni shakllantiradi, innovatsion boshqaruv esa bu jarayonni samarali tashkil etishga yordam beradi. Madaniy meros esa turistik manzillarga xoslik baxsh etib, sayyohlar oqimini oshiradi.

2. Iqtisodiy ta'sir:

Sifatli mehmondo'stlik infratuzilmasi va yuqori darajadagi xizmatlar investitsiyalarni jalb qiladi, bu esa mahalliy iqtisodiyotning rivojlanishiga, yangi ish o'rinlarining yaratilishiga va eksport xizmatlarining oshishiga olib keladi. Bu omillar davlat byudjetiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

3. Texnologik yangi qarash:

Innovatsion boshqaruv va raqamli yechimlar mehmondo'stlik sanoatini yanada zamonaviylashtiradi. Onlayn bron qilish, sun'iy intellekt asosidagi chatbotlar va virtual reallik texnologiyalari mijozlarga qulaylik yaratish bilan birga xarajatlarni optimallashtirishga ham xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, global raqobatbardoshlikni oshiradi.

4. Madaniy va ijtimoiy qimmati:

Madaniy meros va hududiy an'analar turizmni yanada jozibador qiladi. Tarixiy yodgorliklar, arxitektura va madaniy tadbirlar orqali sayyohlar mintaqaning boy madaniy merosi bilan tanishadi. Bu, o'z navbatida, mintaqaviy brendni mustahkamlash va sayyohlik oqimini oshirishga olib keladi.

5. Kelajakdagi yondashuvlar:

Turizmni jadal rivojlantirish uchun mamlakatlar innovatsion texnologiyalarni keng joriy etish, xodimlarni doimiy o'qitish va madaniy merosni asrashga e'tibor qaratishlari lozim. Shu tarzda, raqamli transformatsiya va zamonaviy boshqaruv uslublari orqali mehmondo'stlik sanoatini yanada mustahkam va raqobatbardosh qilish mumkin.

Xulosa: Turizmni jadal rivojlantirishda mehmondo'stlik sanoati hal qiluvchi omil bo'lib, u nafaqat sayyohlik oqimini oshirish, balki iqtisodiy o'sish va mahalliy bandlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Mehmonxona infratuzilmasi, xizmat ko'rsatish sifati, innovatsion boshqaruv uslublari va madaniy merosning o'zaro uyg'unligi sayyohlarning qoniqishi va uzoq muddatli rivojlanishni kafolatlaydi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalar va yangi marketing strategiyalari qo'llanilishi orqali xalqaro raqobatbardoshlik kuchayib, turizm sohasining sifatini yanada oshirish imkoniyati yaratilmoqda. Umuman olganda, mehmondo'stlik sanoatini

mustahkamlash orqali mamlakatning turizm salohiyatini maksimal darajada oshirish, milliy imidjni yaxshilash va global turizm bozorida o'z o'rnini mustahkamlash mumkin. Turizm va mehmondo'stlik sanoatini rivojlantirish uchun bu omillarning barchasini uyg'un holda qo'llash lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Yulchiyev, A. (2023). Turizm sohasida xizmatlar sifatining mohiyati va uni baholash uslubiyotining nazariy jihatlar. Science and innovation in the education system, 2(8), 64- 69. 6.
2. Yulchiyev, A. (2023). Turizm sohasida xizmatlar sifatini boshqarish jarayonlarining o'ziga xos xususiyatlari. Solution of social problems in management and economy, 2(8), 32- 38.
3. Nasriddinovna, T. O. (2024). Prospects for the growth of tourism in Uzbekistan and the use of organizational and economic methods in the management of tourist complexes. International journal of artificial intelligence, 4(07), 98-103. 8.
4. <https://www.unwto.org/tourism-data/un-tourism-tourism-dashboard>
5. <https://www.unwto.org/tourism-statistics/tourism-statistics-database>

СОВРЕМЕННОЕ СОСТОЯНИЕ ИНДУСТРИИ ГОСТЕПРИИМСТВА И ТУРИЗМА

Сатторкулов Обидкул Турикулович,

к.э.н., и.о. профессора, зав.кафедрой Экономика, ГулГУ. e-mail:

obidkul.2011@mail.ru

Аннотация: В этой статье показана современная туристическая отрасль как один из крупнейших секторов мировой экономики. В современной научной и публицистической литературе довольно часто встречается словосочетание «индустрия гостеприимства», однако его толкование вызывает определенные трудности. Для того чтобы их преодолеть, необходимо, думается, пояснить значение каждого термина. «Гостеприимство» (от англ. – hospitality) – «универсальная традиция повседневно-бытовой культуры, предписывающая обязанность радушия и заботы о госте» [4]. Слово «гостеприимство» (hospitality) происходит от старофранцузского «хоспис» (hospice), то есть «места, в котором путники могут получить кров и еду» [5]. В переводе с латинского индустрия (industria) – деятельность. Во многих словарях понятие «индустрия» (англ. industry) означает промышленность, «промышленность» в свою очередь определяется как «крупнейшая отрасль экономики, совокупность родственных предприятий, характеризующихся единством экономического назначения производимой продукции, однородностью потребляемого сырья, общностью технологических процессов и технической базы, особым профессиональным составом кадров и специфическими условиями труда»[6]. Отождествление индустрии с промышленностью имеет логическое обоснование. Долгое время во всем мире промышленный сектор считался центральным звеном экономики, сервисный же рассматривался как второстепенный; доказательством этого является деление экономики в зависимости от видов деятельности на реальный (промышленность), непроемственный (сфера услуг) и финансовый сектора.

Ключевые слова: туризм, индустрия, экономика, гостеприимство, услуги, история, памятники, цивилизация, сфера.

Введение: цель данного исследования заключается в определении современного состояния индустрии гостеприимства и туризма в республике с учетом современных требований и изменений во внешнем мире.

Основная часть: В настоящее время туризм - одна из ведущих отраслей мировой экономики. Поэтому Узбекистан уделяет особое внимание модернизации туристической отрасли, развитию и совершенствованию нормативно -правовой базы для устойчивого развития отрасли, а также организации туристических услуг в

соответствии с международными стандартами. За годы независимости в Узбекистане были осуществлены значительные действия по развитию этой сферы с сохранением и приумножением историко-культурного наследия народа, возрождение национальных традиций и обычаев, реставрация и обустройство достопримечательностей страны.

Узбекистан – страна с богатым прошлым, культурой и традициями. Многовековая история страны увековечена в архитектурных памятниках и достопримечательностях. Почти в каждом городе сохранились объекты старины, которые из поколения в поколение передают дух и атмосферу древнего Востока. Около 400 исторических памятников Узбекистана состоящие под охраной ЮНЕСКО за каждый период сохранения Узбекистана (такие как Самарканд, Хива, Бухара и Шахрисабз). В данный момент под охраной стоят 32 объекта культурного наследия. Сейчас около 300 исторических сооружений состоят в туристическом направлении и предоставлены туристам, навещающим Узбекистан. Что и является тем, что в нашей стране немало туристических преимуществ [1]. Туризм вошёл в XXI веке и стал значительно цивилизованным, социальным и политическим явлением, значимо воздействующим на мировоззрение людей и на экономику стран и целых регионов. Общемировые туристские показатели насчитывает в течение года более 2 млрд путешествующих. Туризм в настоящее время развивается очень стремительно и входит в число трёх крупнейших экспортных отраслей, уступая нефтедобывающей промышленности и автомобилестроению. Стоит отметить, что понятие туризм и гостеприимство нельзя рассматривать отдельно: это два взаимосвязанных терминов. Гостеприимство это одно из представлений цивилизации, который благодаря прогрессу времени преобразилась в мощную индустрию, в которой работают миллионы профессионалов внедрять новое для потребителей услуг. Индустрия гостеприимства состоит из различных сфер деятельности людей – туризм, отдых, развлечения, гостиничный и ресторанный бизнес, общественное питание, экскурсионная деятельность, организация выставок и проведение различных научных конференций. Важно определить, что подразумевается под современной индустрией гостеприимства. Это сфера услуг, которая включает гостиницы (ресорты, бутик-отели, хостелы), рестораны (кафе, кондитерские, бары), ивент-агентства, тематические парки, транспорт, круизные компании, агентства по организации путешествий, т.е. все, что связано с отдыхом. Индустрия фокусируется на роскоши, удовольствиях, впечатлениях и получении нового опыта, а не удовлетворении потребностей первой необходимости.

Индустрия туризма имеет постоянный рост по экономическим показателям. В стране создаются новые туристские продукты в направлении развития паломнического туризма. Производится реставрация археологических и архитектурных объектов. Особое место отводится созданию туристского маршрута «Золотое кольцо» в Узбекистане с посещением старинных городов страны: Бухара, Самарканд, Хивы и др. Анализ состояния отрасли также указывает на недостаточную информированность потенциальных потребителей туристских услуг в России. В гостеприимстве важную роль играет справочная литература предлагаемые отелями или гостиницей. На практике индустрии гостеприимства встречаются с негативными обстоятельствами, но остаётся одной из наиболее перспективных и прибыльных сфер экономики.

Согласно с законом Республики Узбекистан “О туризме” основными направлениями государственной политики в сфере туризма являются:

- развитие данной сферы как стратегической отрасли экономики страны;
- обеспечение прав граждан на отдых, свободу передвижения и иных прав при совершении путешествий;
- рациональное использование и сохранение туристских ресурсов;
- совершенствование нормативно-правовой базы;

создание необходимых условий для развития внутреннего туризма, включая организацию туризма и экскурсии детей, молодежи, престарелых, а также лиц с инвалидностью и малообеспеченных слоев населения в рамках развития социального туризма;

привлечение инвестиций и создание благоприятных условий для инвестирования в сферу туризма;

развитие государственно-частного партнерства в данной сфере;

создание равных возможностей на рынке туристских услуг для субъектов предпринимательства;

стимулирование посредством установления налоговых и таможенных льгот субъектам сферы туризма;

обеспечение безопасности туристов и экскурсантов, защиты их прав, свобод и законных интересов и имущества;

организация и развитие научных исследований;

подготовка, переподготовка и повышение квалификации кадров;

развитие международного сотрудничества;

повышение имиджа Республики Узбекистан как страны, привлекательной для туризма;

оказание субъектам сферы туризма государственной поддержки в продвижении ими национального туристского продукта на туристских рынках;

стимулирование внедрения передовых инновационных и информационно-коммуникационных технологий;

стимулирование развития туристских зон и туристских кластеров.[2].

Важной вехой в истории туризма Узбекистана стало вступление республики в 1993 году во Всемирную туристскую организацию ООН

(ЮНВТО). Наличие более семи тысяч объектов материального и культурного наследия разных эпох и цивилизаций, в том числе исторических центров Бухары, Хивы, Самарканда и Шахрисабза, внесенных в Список всемирного наследия ЮНЕСКО, свидетельствует о высочайшем потенциале Узбекистана. Всемирно известные исторические памятники, современные города, уникальная природа Узбекистана, неповторимая национальная кухня, а также непревзойденное гостеприимство узбекского народа привлекают путешественников. В 1999 г. была принята Хивинская декларация о туризме и сохранении культурного наследия, поддержанная ЮНВТО, ЮНЕСКО и Советом Европы. В 2002 г. была принята Бухарская декларация о туризме на Великом шелковом пути, в которой подчеркиваются преимущества устойчивого туризма и определяются конкретные шаги по продвижению культурного и экологического туризма в этом направлении. В знак признания особого места республики в мировой туристической индустрии в 2004 году в Самарканде был открыт региональный офис ЮНВТО для координации развития туризма на Шелковом пути. Сегодня такой офис существует только в двух странах - в Японии и Узбекистане. Основная функция офиса - обозначение направлений развития не только регионального, но и международного туризма [3].

Усилия руководства республики в сфере туристической инфраструктуры за последние годы поднялись на достаточно высокий

уровень. Принятые меры по поддержке и защите частного сектора способствовали увеличению количества туристических организаций и

гостиничных объектов. В стране успешно работают 1667 туристических организаций, в том числе 989 туроператоров и 869 гостиничных объектов. Разветвленная сеть отелей на более чем 25 000 мест соответствует современным мировым стандартам. Благодаря поистине масштабной работе по строительству и реконструкции инфраструктурных объектов в Узбекистане 11 аэропортов получили статус

международных портов. Современные комфортабельные самолеты, состоящие из авиалайнеров Boeing и Airbus, совершают регулярные рейсы в более чем 40 городов Европы, Азии, Ближнего Востока и Америки. Туристы, посещающие Узбекистан, имеют возможность попасть в по достопримечательностям республики и через железнодорожный транспорт.

Финансовые показатели индустрии гостеприимства, в целом, средняя заполняемость в Узбекистане составляет 56% со 17% за год, среднесуточная ставка составляет 69 долларов США с увеличением на 6% за год, а валовая операционная прибыль составляет 32%. Самый высокий уровень заполняемости является Ташкент, так как он является столицей и центром все деловой активности. Следующий город по уровню заполняемости является Самарканд который растёт быстрыми темпами.

Кроме того уровень заполняемости Хиве является низким хотя темпы роста велики. Предположительно причиной этого роста заключается в том что исторические отели в Хиве не работали в несезонное время из-за низкого спроса, но в настоящее время тенденция изменилась, многие отели продолжали работать в течение всего года. Для курорта Ташкентской области уровень занятости составляет 45% что является хорошим показателем, поскольку спрос в этом регионе зависит от сезона. Важным условием привлечения туристов в регион является повышение комфортности отелей и качества обслуживания. Для отправки любой информации желательно в каждом номере устанавливать видеотелефон и компьютер, подключенный к глобальной сети. Возрастает популярность отелей-музеев, то есть старых частных отелей, по комфортабельности соответствующих мировым стандартам, но сохраняющим неповторимое очарование старины [1].

Современная индустрия туризма является одним из крупнейших секторов мировой экономики. Она составляет достаточно огромное количество дохода как для предприятия, так и в целом для страны. Во многих государствах мира туризм развивается как система, которая предоставляет все возможности для ознакомления с историей, культурой, обычаями, духовными и религиозными ценностями данной страны и её народа, и даёт доход в казну. Помимо значительной статьи дохода туризм является ещё и одним из мощных факторов усиления престижа страны, роста её значения в глазах мирового сообщества и рядовых граждан. Туристическая деятельность в развитых странах является важным источником повышения благосостояния государства. Развитие туризма помогает глобализации и развитие партнерских деловых отношений в бизнесе и во многих других отраслях. Однако, в связи с нестабильной ситуацией пандемии, индустрия несет огромные убытки, что приводит к уничтожению малого бизнеса в туризме и разнообразия.

Заключение: В широком смысле индустрия гостеприимства – сектор сферы услуг, взаимосвязанный с индустрией туризма, объединяющий многочисленные предприятия разной направленности (основные: гостиницы, рестораны, туристские агентства, туроператорские компании, развлекательные заведения, объекты культурного и природного наследия, транспортные компании; а также предприятия, поддерживающие функционирование основных этих предприятий: страховые компании, торговые предприятия, средства массовой информации, образовательные учреждения и т. д.), основанный на принципе гостеприимства обслуживания туристов, путешественников, а также местного населения и организации их отдыха и досуга.

Определение индустрии гостеприимства в узком смысле дает представление об основных видах деятельности, входящих в данную индустрию. В широком смысле – раскрывает сущность индустрии гостеприимства, а именно: специфику деятельности, неразрывную связь с туристской индустрией, широкий и разнообразный состав предприятий, непосредственно в нее входящих и ее поддерживающих.

Список литературы:

1. Баракаева Д.Х. (2021) Индустрия гостеприимства и туризма в Узбекистане. Экономика и социум, (11(90).805-808.
2. Закон Республики Узбекистан «О Туризме», 18 июля 2019 г., № ЗРУ-549.
3. Ражабова Д.Ш. Анализ развития туризма в Узбекистане. // "Экономика и социум" №9(88) 2021
4. Электронный словарь Яндекс. Режим доступа: <http://www.slovari.yandex.ru>
5. Уокер Дж. Р. (2002). Введение в гостеприимство. Introduction to Hospitality: учеб. пособие: рек. учеб.-метод. центром "Профессиональный учебник"; пер. с англ. В. Н. Егорова. 2-е изд. М.: ЮНИТИ-ДАНА, 595 с.
6. Румянцева Е. Е. (2006). Новая экономическая энциклопедия. 2-е изд. М.: ИНФРА-М, 809 с.

O'ZBEKISTONDA MEHMONXONA BIZNESINI RIVOJLANISH MASALALARI

Abdullayeva Barchinoy Yuldashevna

Menejment kafedrası katta o'qituvchisi

Farg'ona davlat texnika universiteti

b.abdullayeva@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonda mehmonxona biznesining rivojlanish tendensiyalari, turizm sohasiga ta'siri va sohani takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlar yoritilgan. Mehmonxona infratuzilmasining yaxshilanishi, investitsiyalar jalb qilinishi va zamonaviy xizmat ko'rsatish standartlarining joriy etilishi biznesning o'sishiga qanday ta'sir ko'rsatgani tahlil qilinadi. Shuningdek, mavjud muammolar va ularning yechimlari haqida ham fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: Mehmonxona biznesi, turizm, infratuzilma, investitsiya, xizmat ko'rsatish, rivojlanish, O'zbekiston, sayyohlik, mehmonxona tarmoqlari, strategiya.

Аннотация: В статье рассматриваются тенденции развития гостиничного бизнеса в Узбекистане, его влияние на сферу туризма, а также проводимая работа по совершенствованию отрасли. Анализируется, как улучшение гостиничной инфраструктуры, привлечение инвестиций и внедрение современных стандартов обслуживания повлияли на рост бизнеса. В нем также обсуждаются существующие проблемы и пути их решения.

Ключевые слова: Гостиничный бизнес, туризм, инфраструктура, инвестиции, сервис, развитие, Узбекистан, туризм, гостиничные сети, стратегия.

Abstract: This article discusses the development trends of the hotel business in Uzbekistan, its impact on the tourism sector, and the work being done to improve the sector. It analyzes how the improvement of hotel infrastructure, the attraction of investments, and the introduction of modern service standards have affected business growth. It also discusses existing problems and their solutions.

Keywords: Hotel business, tourism, infrastructure, investment, service, development, Uzbekistan, tourism, hotel chains, strategy.

Kirish: O'zbekiston turizm sohasi tez sur'atlar bilan rivojlanib, mehmonxona biznesi ham sezilarli o'sishni boshdan kechirmoqda. Hukumat tomonidan qabul qilingan turizmni rivojlantirish strategiyalari doirasida mehmonxona infratuzilmasini modernizatsiya qilish, yangi mehmonxonalar qurish va mavjudlarini rekonstruksiya qilish bo'yicha muhim qadamlar qo'yilmoqda.

O'zbekiston boy madaniy merosi, tarixiy yodgorliklari va betakror tabiati bilan turizm sohasini jadal rivojlantirayotgan mamlakatlardan biridir.

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida tashqi va ichki turizmni rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratish hamda sayyohlar sonini oshirish bo'yicha aniq maqsadlar belgilangan.

Mamlakatimizga tashrif buyuruvchi xorijiy sayyohlar soni pandemiyagacha bo'lgan ko'rsatkichning 98 foiziga yetdi. 2019-yilda 6,748 million xorijiy sayyoh tashrif buyurgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 6,626 millionni tashkil etdi. Bu esa O'zbekistonda turizm sohasi jadallik bilan tiklanayotganini ko'rsatadi.

Xorijiy sayyohlarni jalb etish maqsadida viza rejimini soddalashtirish, yangi yo'nalishlarni o'zlashtirish, sohaga investitsiyalar kiritish hamda yirik tadbirlarni tashkil etish kabi keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2023-yilda umumiy qiymati 9,5 trillion so'mga teng bo'lgan 508 ta loyiha amalga oshirilgan bo'lib, natijada 9492 ta yangi ish o'rni yaratildi. Shu yili 183 ta yangi mehmonxona va 232 ta hostel ochilib, turar joy maskanlari soni 5526 taga yetdi. Shuningdek, oilaviy mehmon uylari soni 3458 taga ko'paydi, sayyohlik agentliklari esa 2649 taga yetdi.

Asosiy qism: Turizm segmenti: Hozirgi vaqtda mehmonxona xizmatlariga talabning asosiy ulushini dam olish maqsadida kelgan mehmonlar tashkil etadi.

Xonalar soniga qarab, ob'ektlar ham individual turistlar bilan, ham turoperatorlar orqali tashkil etilgan guruh sayohatlari bilan ishlaydi.

Individual turistlar asosan bolali oilalardir. Ushbu kichik guruhga bo'lgan talabning eng yuqori cho'qqilari yoz oylari va bolalar ta'tilining davrlari bo'lib, ularning umumiy talabdagi ulushi 90% ga etadi.

O'rtacha, turistik segmentdagi bolalar bilan mehmonlarning ulushi taxminan 70-80% ni tashkil qiladi.

Dam olish maqsadida kelgan mehmonlar uchun o'rtacha qolish muddati 1-2 kechani tashkil qiladi.

Tashkil etilgan guruhlar: O'zbekiston turizm bozorida faoliyat yurituvchi kompaniyalarning ma'lumotlariga ko'ra, aksariyat yirik xalqaro turoperatorlar O'zbekistonda mahalliy vositachilar (DMC – destination management company) orqali ishlaydi, ba'zi operatorlar xizmatlarni to'liq mahalliy kompaniyalarga topshiradi: yer xizmatlari – transport, gidlar, mehmonxonalarni bron qilish va ekskursiyalarni qo'llab-quvvatlash. , O'z xizmatlarini to'liq yoki bir qismini mahalliy DMC'lardan sotib oladigan kompaniyalar orasida TUI, MarcoPolo, Cox&Kings, ThomasCook bor. Umuman olganda, bu tendentsiya bozorda hali ham mavjud, chunki sayyohlar oqimi hali ham etarlicha katta emas. Ammo mamlakatning sayyohlik salohiyati va u bilan bog'liq infratuzilma rivojlanib borar ekan, yirik operatorlar, katta ehtimol bilan, vositachilarni chetlab o'tib, to'g'ridan-to'g'ri sayyohlik xizmatlarining to'liq spektrini nazorat qilish va taqdim etish imkonini beradigan mahalliy ofislarni ochish orqali o'z ishtirokini oshiradi.

O'zbekiston bozorida faoliyat yuritayotgan kompaniyalar orasida bevosita: - HRG, AmericanExpress mahalliy hamkori - ElanExpress bilan mahalliy qo'shma korxonaga ega;

- MIRCORPORATION kompaniyasining Toshkent shahrida vakolatxonasi mavjud bo'lib, u erdan O'zbekiston va butun mintaqadagi o'z guruhlar uchun xizmatlarning to'liq siklini mahalliy darajada tashkil etadi.

Xorijiy sayyohlar: 35 yoshdan 45 yoshgacha bo'lgan yosh guruhi – Markaziy Osiyo (29,4%), MDH davlatlaridan (33,8%) va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidan (30,0%) kelgan respondentlarning eng ko'p soni. Yevropalik sayyohlarning ASOSIY QISM:ini 55 va undan katta yoshdagilar tashkil etadi (42,5%).

Respondentlarning aksariyati uchun O'zbekistonga safardan maqsad do'stlar va qarindoshlarni ziyorat qilish edi. Bu qism respondentlar umumiy sonining 39,4 foizini tashkil qiladi. Respondentlarning ikkinchi eng katta segmenti – 33,6 foizi O'zbekistonga tashrif buyurishdan maqsad ko'ngil ochish, hordiq chiqarish va hordiq chiqarish ekanligini aytdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'ylab sayohat qilganda respondentlarning eng katta qismi (43,6%) oila va do'stlar davrasida qolishni afzal ko'rgan. Oila va do'stlar davrasida qolishni tanlaganlarning 85,1 foizi Markaziy Osiyodan tashrif buyuruvchilardir.

Yevropa (34% va 37,0%) va Osiyo Tinch okeani (40,0% va 43,0%) sayyohlarining aksariyati turar joy sifatida 2, 3 yulduzli va 4, 5 yulduzli mehmonxonalarni afzal ko'radi. Yaqin

Sharq va Shimoliy Amerikadan kelgan sayyohlar O'zbekistonda joylashtirish turini tanlaganlarida ham xuddi shunday holat kuzatilmoqda, bu hududlardan kelgan sayyohlarning mos ravishda 79,6 va 75,0 foizi o'z qolishlari uchun 2, 3 yulduzli va 4, 5 yulduzli mehmonxonalarni tanlaydi.

Markaziy Osiyodan tashrif buyuruvchilar O'zbekistonda xarid qilishga eng katta qiziqish bildirgan (39,7%). Yevropa (77,5 foiz) va Osiyo-Tinch okeani mintaqasidan (72,2 foiz) tashrif buyurganlarning aksariyati O'zbekistonda bo'lishlari davomida muzey va galereyalarga tashrif buyurishni turistik faoliyat sifatida qayd etgan.

Mehmonxona biznesining hozirgi holati: So'nggi yillarda mamlakatda mehmonxona sanoati sezilarli darajada rivojlandi. Xususiyl sektor va xorijiy investitsiyalar jalb qilinishi mehmonxona biznesining o'sishiga turtki bo'ldi.

O'zbekistonning yirik shaharlari va sayyohlik yo'nalishlarida xalqaro standartlarga javob beradigan mehmonxonalar qurilmoqda.

Mehmonxona infratuzilmasining takomillashtirilishi Zamonaviy mehmonxona majmualari barpo etilmoqda.

Xizmat ko'rsatish sifati oshirilishi uchun kadrlar tayyorlash tizimi yo'lga qo'yilgan. Elektron bron qilish tizimlari va raqamli xizmatlardan foydalanish ommalashmoqda.

Investitsiyalar va davlat qo'llab-quvvatlashi Mehmonxona biznesini rivojlantirish uchun davlat tomonidan imtiyozlar taqdim etilmoqda.

Mahalliy va xorijiy investorlarga qulay shart-sharoitlar yaratilib, soliq yengilliklari joriy etilgan. Mehmonxona loyihalariga kredit va grantlar ajratilishi biznesning kengayishiga zamin yaratmoqda. **Muammolar va ularning yechimlari** Kichik va o'rta mehmonxonalar uchun moliyaviy resurslarning yetishmovchiligi.

Xodimlarning malaka darajasini oshirish zarurati. Sayyohlar oqimining mavsumiy o'zgaruvchanligi muammosi va uni bartaraf etish strategiyalari.

2017-2023-yillar davomida O'zbekistonga kelgan sayyohlar soni sezilarli darajada oshdi. 2017-yilda 2,7 million kishi tashrif buyurgan bo'lsa, 2023-yilda bu raqam 6,6 millionga yetdi. Bu esa 2017-yilga nisbatan 2,5 barobar, 2022-yilga nisbatan esa 1,3 barobar ko'pdir. Xususan, Yaponiyadan kelgan sayyohlar soni 5 barobar,

Hindiston va Italiyadan kelgan sayyohlar soni esa 35 barobar ortdi. 2023-yilda qo'shni davlatlardan kelgan xorijiy sayyohlar umumiy oqimning 80,7 foizini, MDH davlatlaridan 11,5 foizini, boshqa davlatlardan esa 7,8 foizini tashkil etdi. Sayyohlarning mamlakatimizda qolish muddati 4-5 kungacha oshdi, bu esa 2022-yilga nisbatan 1,5 barobar ko'pdir.

Ichki turizm ham jadal rivojlanmoqda.

"O'zbekiston bo'ylab sayohat!" dasturi doirasida 15 million kishi mamlakat bo'ylab sayohat qilib, turli mintaqalarga 21 million marta tashrif buyurdi. Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash doirasida 1100 nafar nogironligi bo'lgan shaxs va 570 ming nafar yoshlar sayohat qilish imkoniyatiga ega bo'ldi.

2023-yilda turizm xizmatlari eksporti 2,1435 milliard AQSh dollarini tashkil etdi, bu esa 2022-yilga nisbatan 1,3 barobar ko'pdir. Shuningdek, turizm va unga bog'liq sohalarda 70 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratildi. Bu esa mamlakatimizda sayyohlik infratuzilmasining rivojlanib borayotganidan dalolat beradi va iqtisodiy o'sishga hamda aholi farovonligining yuksalishiga xizmat qiladi.

Turizm sohasi rivojlanishi O'zbekistonning xalqaro reytinglarda yuqori o'rinlarni egallashiga yordam bermoqda. Masalan, Global Muslim Travel Index (GMTI-2023) reytingida O'zbekiston xalqaro ziyorat turizmi bo'yicha 140 davlat orasida 13-o'rinni egalladi. Xiva shahri esa 2023-yilgi Halal In Travel Awards mukofotiga sazovor bo'ldi.

2023-yilda Samarqand shahrida YUNVTO Bosh Assambleyasining 25-sessiyasi o'tkazildi va unda Navoiy viloyatining Sentob qishlog'i "2023-yilning eng yaxshi sayyohlik qishlog'i" deb topildi. Shuningdek, Lonely Planet xalqaro nashriyoti O'zbekistonni "Eng yaxshi sayyohlik yo'nalishi 2024" nominatsiyasida maxsus sertifikat bilan taqdirladi.

O'zbekiston 2024-yilda sayohat uchun eng yaxshi mamlakatlar ro'yxatiga kiritildi. World of Statistics ma'lumotlariga ko'ra, xorijiy sayyohlar soni va turizm xizmatlari eksportining o'sishi mamlakatimizning xalqaro obro'-e'tiborini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Umuman olganda, O'zbekistonda turizm sohasi jadal rivojlanib, ijobiy natijalarni namoyon qilmoqda. "O'zbekiston – 2030" strategiyasida turizmni rivojlantirish bo'yicha belgilangan vazifalar aholi daromadlarini oshirish, yangi ish o'rinlari yaratish va xalq farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Xulosa: O'zbekiston mehmonxona biznesi barqaror rivojlanib, xalqaro darajadagi xizmatlarni joriy qilish yo'lida izchil harakat qilmoqda. Davlat tomonidan qo'llanayotgan imtiyozlar va investitsiyalar sohaga ijobiy ta'sir ko'rsatib, mehmonxona biznesining yangi bosqichga chiqishiga zamin yaratmoqda. Kelajakda mehmonxona infratuzilmasini yanada rivojlantirish va innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish orqali turizmning yanada taraqqiy etishi kutilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Qurbonova, M. (2024). TURIZM VA MEHMONXONA XIZMATLARINING IQTISODIY BARQARORLIGIGA TA'SIRI. *Наука и инновация*, 2(39), 18-20.
2. Qizi, X. S. S. (2024). ITALIYA GASTRONOMIYA TAJRIBASI. *Science and innovation*, 3(Special Issue 60), 128-130.
3. Ахунова, Ш. Н., & Абдуллаева, Б. (2015). Динамика и перспективы развития частного предпринимательства в Узбекистане. *Журнал научных публикаций аспирантов и докторантов*, (5), 23-25.

XUDOYORXON O'RDASINING MADANIY TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI.

Umarov Omonjon

Qo'qon universiteti Xalqaro turizm va iqtisodiyot kafedrası katta o'qituvchisi

umarovomonjon1994@gmail.com

Chinberdieva Zarnigor

Qo'qon unversiteti turizm yo'nalishi talabasi.

zarnigorchinberdiyeva074@gmail.com

Annotatsiya: Xudoyorxon Farg'ona viloyatining eng muhim tarixiy va madaniy yodgorliklaridan biri bo'lib, O'rta asrlar me'morchiligi va san'ati bilan ajralib turadi. O'rdaning ahamiyati nafaqat arxitektura va tarixda, balki turizm sohasida ham o'z o'rnini topgan. Tezisdá Xudoyorxon O'rdasining turizm rivojlanishiga qo'shgan hissasi tahlil qilinadi, bu o'z ichiga O'rdaning tarixiy ahamiyati, me'moriy xususiyatlari, sayyohlarni jalb qilishdagi roli va mahalliy aholi bilan hamkorlikni o'z ichiga oladi. O'rdaning hozirgi kunda turizm infratuzilmasi va sayyohlarni jalb qilishda qanday o'zgarishlar yuz berayotgani ko'rib chiqiladi. Xudoyorxon O'rdasining turizm sohasiga qo'shgan hissasini baholash orqali, uning rivojlanish istiqbollari ham o'rganiladi. Bu tezis Xudoyorxon o'rdasining o'ziga xos jihatlarini aniqlash va uning turizm sohasidagi ahamiyatini ko'rsatish maqsadida yozilgan.

Kalit so'zlar: Xudoyorxon o'rdasi, me'moriy yodgorlik, kitobalar, arxitektura, turizm.

Kirish: Ko'plab ko'xna shaharlarning diqqat-e'tiborga loyiq me'moriy ramzlari bor. Chunonchi, Parijning me'moriy ramzlari Notr-Damm ibodatxonasi va Eyfel minorasi, Samarqandning ramzi Sherdor madrasasi, Shahrisabzniki-Oqsaroy, Buxoro ramzi-Minorai Kalon, Xiva ramzi-Islomxo'ja minorasi va h.k. Xo'qandi latifning ramzi esa Xudoyorxon o'rdasidir. Markaziy Osiyoda uchta saroy inshooti saqlanib qolgan: Buxoroda Ark, Xivada Nurlovoy (Nurilloboy) saroyi, Xo'qandda Xudoyorxon o'rdasi. Xo'qandi latifga ko'rk, salobat, ulug'vorlik baxsh etib turgan bu nodir yodgorlik xo'qandliklarda iftixor hissini, mehmonlarda hayrat va qiziqish uyg'otadi.

Xudoyorxon O'rdasi o'zining tarixiy yodgorliklari va arxitektura merosi bilan Farg'ona vodiysining eng muhim madaniy obidalaridan biridir. Xudoyorxon o'rdasi Samarqand va Buxoro o'rtasida joylashgan va XIV-XV asrlarda qurilgan. Ushbu joy O'rta asrlar me'morchiligining namunasi sifatida bugungi kunda nafaqat mahalliy, balki xalqaro sayyohlar uchun ham qiziqarli manzillar qatoriga kiradi. O'rdaning me'moriy tuzilmalari va arxitektura uslubi turizm rivojlanishida katta ahamiyatga ega bo'lib, bu yerdagi tarixiy va madaniy obidalar sayyohlar uchun muhim manba bo'lib xizmat qiladi. O'rdaning mavjudligi nafaqat turizm sohasida, balki mahalliy iqtisodiyotning yaxshilanishi va madaniy merosning saqlanishida ham o'z hissasini qo'shadi. O'rdaning turizm rivojlanishiga qo'shgan hissasini to'liq baholash, bu joyning tarixiy, madaniy va iqtisodiy ahamiyatini tushunishda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, Xudoyorxon o'rdasining turizm salohiyatini yanada oshirish uchun yangi strategiyalar va rivojlanish yo'llari ham kerak bo'ladi.

Bugungi kunda Xudoyorxon o'rdasining turizm salohiyati ortib bormoqda. O'rdaning atrofida yangi turistik yo'nalishlar va imkoniyatlar yaratildi, bularning barchasi zamonaviy turizm infratuzilmasining rivojlanishiga xizmat qiladi. Mehmonxonalar, restoranlar, turistik markazlar va madaniy tadbirlar tashkil etilishi bu yerga jalb qilinayotgan sayyohlar sonining ortishiga xizmat qilmoqda. Biroq, bular bilan birga, O'rdaning tarixiy obidalarini saqlab qolish, ekologik toza turizmni rivojlantirish va mahalliy aholi bilan hamkorlikni yanada mustahkamlash zarurati mavjud. Xudoyorxon o'rdasining turizm salohiyatini yanada oshirish uchun saqlash va rivojlantirishni uyg'unlashtirish zarur.

Ayniqsa, barqaror turizmning rivojlanishi O'rdaning turizm salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Mahalliy tabiiy manbalarni va madaniy merosni saqlab qolish, ular bilan bog'liq turizmni rivojlantirish orqali, O'rdaning ko'plab tarixiy va madaniy yodgorliklarining ahamiyatini saqlab qolish mumkin. Shuningdek, ilg'or texnologiyalar va raqamli innovatsiyalarni qo'llash orqali Xudoyorxon o'rdasining yanada kengroq auditoriyaga tanitilishi va sayyohlarni jalb qilish imkoniyati oshadi.

Asosiy qism: Xudoyorxon o'rdasi o'rta asrlar Qo'qon xonligining markaziy obidalaridan biridir. O'rdaning asosiy me'moriy yodgorliklari orasida uning darvozasi, masjidlar, madrasalar va boshqa arxitektura inshootlari ajralib turadi. Ushbu me'moriy inshootlar nafaqat o'z zamonasining yuksak me'morchilik yodgorliklari, balki bugungi kunda ham o'ziga xos tarixiy va madaniy qiymatga ega. Xudoyorxon o'rdasining o'ziga xosligi uning uslubi va qurilish texnologiyasining noyobligidadir. O'rdada ko'rinadigan elementlar, masalan, chiroyli naqshlar, rang-barang keramika bezaklar, mozaikalar va naqshli ishlovlar ushbu joyning tarixiy merosini yaratishda katta ahamiyatga ega bo'ldi. O'rdaning turizm rivojlanishiga ta'sir qiluvchi yana bir omil bu uning tarixi bilan bog'liq bo'lgan folklor, adabiyot va san'at asarlari bo'lib, ular sayyohlar uchun nafaqat arxitektura, balki madaniyatning boshqa jabhalarini ham o'rganish imkoniyatini yaratadi.

Bugungi kunda Xudoyorxon o'rdasi atrofida zamonaviy turizm infratuzilmasi rivojlanmoqda. O'rdaning turizm salohiyatini to'liq amalga oshirish uchun mehmonxonalar, kafe va restoranlar, turistik markazlar, madaniy tadbirlar va festivallar tashkil etilmoqda. Xudoyorxon o'rdasining jozibadorligi faqat tarixiy yodgorliklar bilan cheklanib qolmay, balki sayyohlar uchun innovatsion xizmatlar va qulayliklar taqdim etish bilan ham bog'liq. Ushbu joyda zamonaviy arxitektura va tarixni birlashtirgan me'moriy loyihalar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, Xudoyorxon o'rdasining tarixiy obidalariga saqlovchilik ishlari va konservatsiya ishlari olib borilmoqda, bu esa uning turizm sohasidagi rolini oshiradi. O'rdaning arxitektura va madaniyat sohasidagi innovatsion yondashuvlar turizmning yanada rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xudoyorxon o'rdasi o'zining boy tarixi, arxitekturasi va madaniy merosi bilan turizm sektori rivojlanishida muhim o'rin tutadi. Quyida ushbu o'rdaning turizm rivojlanishidagi ahamiyati bilan bog'liq asosiy jihatlar keltirilgan:

Xudoyorxon o'rdasi – xonlik tarixida qurilgan yettinchi oxirgi o'rda. Zamonasining eng mohir me'morlaridan bo'lmish usta Mir Ubaydullo muhandisga yuklatiladi. Qurilish ishlariga atoqli davlat arborbi, mohir usta va naqqosh, xattot Muhammad Turdiali sarkor etib belgilanadi

1865-yil boshlangan qurilish 1870-yilda yakunlandi. Maydoni 8 gektarni tashkil etgan. Inshoot to'rt tarkibiy qismdan iborat bo'lgan: Tashqi saroy (qal'a), O'rta saroy, Ichki saroy, Bog'.

O'rda binosi ma'muriy jihatdan ham bir necha yirik qismlarga bo'linadi: Qal'a, Davlatxona, Haram, Shahnishin, Xo'jalik bo'limi, Ma'naviy bo'lim va Ichki saroy. Ichki saroy yerdan to'rt gaz balandlikdagi, atrofi g'ishtli poydevor bilan mustahkamlangan sun'iy tepalik ustida qurilgan. Ostqurma (poydevor) uzunligi 143 metr, eni 68 metr. Maydoni 1 gektar atrofida, inshootning haramgacha bo'lgan qismi bir qavatli, haram esa ikki qavatli qilib qurilgan. Ichki saroy yetti hovli va 114 ta xonadan iborat. Sharq me'morchiligida imoratning old tomoni peshgoh deb ataladi. Uning uzunligi janubdan shimolga 65 metr, balandligi esa ostqurmadan hisoblaganda 11,7 metr. Peshgoh ravoqlarga bo'lingan. Darvozaning o'ng tomonida 7 ta, chap tomonida 6 ta ravoq bor. Ravoqlardan yuqorida husnixat bilan kitobalar bitilgan. Kitobadagi yozuvlar fors tilida duo va ta'rix hamda Qur'oni karim oyatidan iborat. Peshgohning chap tomoniga to'rt qatorli (misrali) duo bitilgan:

*Ey Xudoyim, balolarni daf etgil o'zing,
Ko'z tegishi ofatidin saqlagin o'zing.
Muhammadning qo'sh kokili hurmati,
Bizdan ustun kelganlarni daf etgil o'zing.*

Asosiy hovlidan Salomxonaga kiriladi. Shu tufayli bu hovlini "Dorussalom"- tinchlik-omonlik, salomatlik uyi" deb ham ataydilar. Salomxona-xon qabulxonasi. Ba'zan katta qabulxona deb ham ataladi. Salomxona majmuasi kutish xonasi, mirzo xonasi, eshikog'o xonasi va qabulxonadan iborat. Devorlar koshin, ganch va sir bilan bezatilgan. Hujrai xos-xonning o'z xonasi. Xon kengash, qabul ishlarini salomxonada o'tkazadigan bo'lsa, bu yerda yaqin a'yonlari bilan maslahatli ishlarni bitirgan, kundalik hokimiyat ishlari bilan shug'ullangan. Jonli tilda bu xonani "Kichik salomxona" deb ham yuritiladi. Mehmonxona besh xonadan iborat bo'lib, ichki saroyning o'rtasiga qurilgan. Salomxona va hujrai xos darajasida bo'lmasada, o'rdaning go'zal xonalari sirasiga kiradi. Shahnishin shoh, ya'ni xon o'tiradigan joy deganidir. Xon saltanat ishlaridan forig' bo'lganidan keyin, shu hovlida vaqt o'tkazgan. Inshoot 6ta xonadan 2 tasi xonzodalar hovlisiga yondosh bo'lib, u yerda ombor va oshxona, choyxona joylashgan. Shahnishinning shimoliy yo'lagi orqali xonzodalar hovlisiga kiramiz. Hovlining g'arb, janub tomonlarida ikkitadan 4ta oldi ayvonli xonalar bor. Xonzodalar 12 yoshgacha, ya'ni gunox bitadigan yoshgacha, haramda yashaydilar. 12 yoshdan keyin, haramdan xonzodalar hovlisiga chiqadi. Har bir shag'zodaning 2 tadan otaliq tarbiyalagan.

Darvozaxonadan o'ng tomonda devon joylashgan. Devon "tartib berish" degani bo'lib, ko'plab ma'nolarda ishlatiladi.

Devon 2 qismdan iborat: Oliy mahkama va Mirzoxona (daftarxona).

O'rda Farg'ona vodiysidagi eng yirik va muhtasham inshootlardan biri bo'lib, u orqali Qo'qon xonligining siyosiy va madaniy tarixi haqida tasavvur hosil qilish mumkin. Bu yerdagi arxitektura va san'at asarlari tarixiy zamonlarning keng kontekstida o'rganilishi va tushunish imkoniyatini beradi.

Madaniy identifikatsiya: Mahalliy aholi uchun bu joy o'z tarixi va madaniyatini qayta tiklash, rivojlantirish va qadrlash manbai bo'lib xizmat qiladi.

Me'moriy yodgorlik sifatida O'rda sharqona me'morchilik an'analari asosida qurilgan bo'lib, undagi bezaklar, nafis ganch o'ymakorligi va nafis naqshlar tashrif buyuruvchilarda katta taassurot qoldiradi.

Turistik jalb qilish manbai Xudoyorxon o'rdasi mahalliy va xorijiy sayyohlarni jalb qilish orqali Qo'qon shahrining turizm salohiyatini oshiradi va iqtisodiy rivojlanishiga hissa qo'shadi.

Yangilanish va renovatsiya. Arxeologik yoki restavratsiyaishlari orqali o'rdaning ko'rinishini tiklash, uni zamonaviy turizm talablariga moslashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu safarbarlik, yangi xizmat ko'rsatish markazlari va infratuzilma yaratishga sabab bo'ladi.

Muzey sifatida faoliyat yuritishi: Hozirda o'rda hududida Qo'qon tarixi bilan bog'liq ko'plab eksponatlar saqlanayotgan muzey joylashgan bo'lib, bu tarixiy bilimlarni boyitish uchun muhim manba hisoblanadi.

Interaktiv muzey va ekskursiyalar: Zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda virtual turlar, interaktiv ekspozitsiyalar va multimedia qo'llanmalari orqali sayyohlar uchun qiziqarli va bilimli tajribalar yaratish mumkin. Ijtimoiy va madaniy tadbirlar markazi:

O'rda hududida turli madaniy tadbirlar, festivallar va an'anaviy hunarmandchilik ko'rgazmalari o'tkazilishi turizmni yanada rivojlantirishga yordam beradi.

Ekonomik imkoniyatlari: Ushbu meros mintaqa turizm sektoriga investitsiyalarni jalb qilib, mahalliy aholi uchun ish o'rinlari yaratishda muhim rol o'ynaydi. Tarixiy yodgorliklar turistlar sonini oshirib, mahalliy mahsulotlarni reklama qilishga yordam beradi.

Innovatsion va rekreatsion imkoniyatlar: Zamonaviy texnologiyalardan foydalanish orqali virtual ekskursiyalar, interaktiv ko'rgazmalar va turizm infratuzilmasini yaxshilash imkoniyati yaratiladi, bu esa o'rdaning yangi auditoriyalarga tarqalishiga yordam beradi.

Xudoyorxon o'rdasining turizm rivojlanishiga qo'shgan hissasi nafaqat turizm sohasidagi infratuzilma bilan bog'liq, balki mahalliy aholi uchun yangi ish o'rinlari yaratish, ularning turizmga oid bilim va ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Mahalliy aholi turizm jarayonida faqat ishchi kuchi sifatida ishtirok etib qolmay, balki turizmni qo'llab-quvvatlovchi mas'uliyatli vakillar sifatida ham o'z o'rnini topadi. O'rdaning turizm salohiyatining rivojlanishi mahalliy iqtisodiyotga ham ijobiy ta'sir ko'rsatadi, chunki sayyohlar uchun taqdim etiladigan xizmatlar mahalliy tadbirkorlar va ishlab chiqaruvchilarni qo'llab-quvvatlaydi. Mahalliy aholi uchun bu imkoniyatlar turizm sohasida ish o'rinlari yaratishda muhim ahamiyatga ega.

Xudoyorxon o'rdasining turizm salohiyatini yanada oshirish uchun ko'plab istiqbollar mavjud. Bu istiqbollar, avvalo, arxitektura yodgorliklarini saqlab qolish, ekologik turizmni rivojlantirish, mahalliy madaniyatni targ'ib qilish va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilishni o'z ichiga oladi. O'rdaning turizm salohiyatini yanada oshirish uchun innovatsion texnologiyalar, masalan, virtual sayohatlar va interaktiv dasturlarni joriy etish mumkin. Shuningdek, O'rdaning rivojlanishida ekologik turizmning o'rni ham katta. Ekologik turizmni rivojlantirish orqali Xudoyorxon o'rdasining tabiiy va madaniy manbalaridan samarali foydalanish mumkin.

Xulosa: Xudoyorxon o'rdasining turizm rivojlanishiga qo'shgan hissasi nafaqat ushbu tarixiy yodgorlikning saqlanishi, balki uning atrofidagi madaniy va iqtisodiy faoliyatning rivojlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. O'rdaning tarixiy va arxitektura yodgorliklari, nafaqat o'zining go'zalligi bilan sayyohlarni o'ziga jalb etadi, balki mahalliy aholi va davlat uchun iqtisodiy foyda keltiradi. Xudoyorxon o'rdasi, bu yerdagi noyob madaniy merosni saqlash va yangi turizm xizmatlarini joriy etish orqali nafaqat o'zbek turizm sohasining rivojlanishiga hissa qo'shadi, balki butun mintaqadagi madaniy turizmni jonlantirishga yordam beradi.

Kelajakda Xudoyorxon o'rdasining turizm salohiyatini yanada rivojlantirishda davlat va mahalliy hokimiyatlar o'rtasida kooperatsiya, ilmiy-tadqiqotlar, xalqaro hamkorlik va innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutadi. Mahalliy aholi va turizm sohasi mutaxassislari o'rtasida yaqindan hamkorlik qilish, turizm ta'limini rivojlantirish va sayyohlar uchun sifatli xizmatlarni taklif etish Xudoyorxon o'rdasining dunyo miqyosida taniqliligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, O'rdaning arxitektura va madaniy merosini saqlash, yoshlarni bu merosni qadrlashga o'rgatish, zamonaviy turizm ehtiyojlariga javob beradigan inshootlar qurish va turizmga oid xizmatlar sifatini oshirish kerak.

Xudoyorxon o'rdasining turizm rivojlanishiga qo'shgan hissasi, ayniqsa, turizmning jamiyatga ta'sirini kengaytirishda, iqtisodiy va madaniy rivojlanishda va xalqaro aloqalar o'rnatishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayonni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zamonaviy

yondashuvlar va ilg'or tajribalardan foydalanish, shuningdek, madaniy merosni kelajak avlodlar uchun saqlab qolish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish zarur. Xudoyorxon o'rdasi hozirgi va kelajakdagi turizm salohiyatini amalga oshirishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Tajiyeva, M. M. (2022). SOCIO-ECONOMIC SYSTEM OF SMALL BUSINESS THEORETICAL VIEWS OF SCIENTISTS IN DEVELOPMENT. A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal, 55-59.
2. Yuldasheva Nilufarxon a'zamjon qizi, (2024) [XULQ-ATVOR MOLIVASINING ASOSLARI VA UNING INVESTORLARNING QAROR QABUL QILISHDAGI O'RNI](https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/510) University Research Base, 2024 Retrieved from: <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/510>
3. Mexmonaliyev, U. (2024). ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING ASOSIY OMILLARI. University Research Base, 277-279. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/515>
4. Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li. (2024). ICHKI AUDITNI RIVOJLANTIRISHNING DOLZARB MASALALARI. University Research Base, 810-811. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/515>
5. Melibaeva Gulxon Nazrullaevna. (2023). AN OVERVIEW OF THE FUNCTION OF HUMAN RESOURCE MANAGEMENT IN EMPLOYEE PERFORMANCE AND MOTIVATION. QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 9(9), 117-121. <https://doi.org/10.54613/ku.v9i9.850>
6. Aliyevich, Y. A. (2023). O 'ZBEKISTON IQTISODIY SHAROITIDA INSON RESURLARIDAN FOYDALANISHDAGI FAOLIYAT TURLARI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 1, 76-78.
7. Yusupov Abbosxon Aliyevich. (2023). METHODOLOGICAL PRINCIPLES OF USING HUMAN RESOURCES IN THE ACTIVITY OF SMALL
8. O'G'li, U. O. M. (2024). SMART TEXNOLOGIYALARNING TURIZM RIVOJLANISHIGA TA'SIRI. Raqamli iqtisodiyot (Цифровая экономика), (6), 132-141.
9. Umarov, O., & To'xtanazarova, M. (2024). MADANIY TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI. QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 11, 37-40.
10. Omonjon, U. (2024). ILMIY TURIZM VA UNING YEVROPA DAVLATLARIDA RIVOJLANISHI. Kokand University Research Base, 940-943.
11. Turanboyev Boburjon Qodirjon o'g'li. (2024). DAVLAT SOLIQ SIYOSATIDA EKOLOGIK SOLIQLARNI JORIY ETISH ORQALI TABIIY RESURLARDAN SAMARALI FOYDALANISHGA ERISHISHNING AHAMIYATI. Kokand University Research Base, 927-930. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/259>
12. Qodirjon o'g'li, T. B. (2024). SUV RESURLARIDAN FOYDALANGANLIK UCHUN SOLIQ TA'SIRCHANLIGINI OSHIRISHNING AHAMIYATI. ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ, 37(1), 151-153.
13. Po'latov, S., & Farmonov, I. (2023). The Role and Significance of Internal Audit as an Effective System of Internal Control in Business Entities.
14. Kamoldinovna, S. Y. (2024). TURIZMDA MAHSULOT VA BOZORNI DIVERSIFIKATSIYA QILISH. University Research Base, 906-909.
15. Sultonova, Y. (2023). KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH VA UNING INFRATUZILMASINI QO'LLAB-QUVVATLASHNI O'RGANISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 2(2), 101-104.
16. Исмоилов, Б. М. (2025, January). Давлат харидларини ривожланишига таъсир этувчи омиллар. In INTERNATIONAL CONFERENCE ON INTERDISCIPLINARY SCIENCE (Vol. 2, No. 2, pp. 33-39).
17. Ismoilov, B. (2024). TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT XARIDLARIDAGI ISHTIROKI:(Farg'ona viloyati misolida). QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI, 13, 133-135.

18. Jurayev, U. (2024). TURIZM MOLIYASIDA INVESTITSIYA VA INNOVATSIYALARNING ROLI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 75–77. <https://doi.org/10.54613/ku.v13i.1027>
19. Umidjon, J. (2024). MILLIY IQTISODIYOT RIVOJLANISHIDA XALQARO MOLIYA MUNOSABATLARINING TUTGAN O'RNI VA AHAMIYATI. *University Research Base*, 273–276. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/514>
20. Murodova Yoqutxon, & Mirboboyeva Parizoda. (2023). BARQAROR TURIZM VA EKOTURIZM TASNIFI TAHLILI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 1(1), 287–289. <https://doi.org/10.54613/ku.v1i1.438>
21. Gulomkodiroya Mamura, & Parizoda Mirboboyeva. (2024). Qishloq taraqqiyotida turizmning roli: Rural turizmning mavjud imkoniyatlari, muammolari va ilg'or tajribalari. *University Research Base*, 760–769. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/213>
22. Omonjon Umarov, & Parizoda Mirboboyeva Umidjon qizi. (2023). Madaniy meros turizmi: Asosiy tendensiyalar, rivojlanish va muammolar (O'zbekiston va Turkiya misolida). *Qo'qon universiteti xabarnomasi*, 8(8), 78–80. <https://doi.org/10.54613/ku.v8i8.809>
23. Mirboboyeva P., & Umarov, O. (2024). GASTRONOMIK TURIZMNING TURIZM SOHASIDA TUTGAN O'RNI. *University Research Base*, 552–559. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/675>
24. Melibayeva G., & Parizoda M. (2024). TURIZM XIZMAT KO'RSATISH SOXASIDA BIZNES PSIXOLOGIYANING TUTGAN ROLI. *University Research Base*, 578–581. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/680>
25. Gulomqodiroya, M., & Mirboboyeva P. (2024). MEHMONXONA BIZNESIDA XIZMAT KO'RSATISH SIFATINI OSHIRISH STRATEGIYALARI. *University Research Base*, 565–570. Retrieved from <https://scholar.kokanduni.uz/index.php/rb/article/view/677>
26. Turg'unov, J. A. (2023). MAMLAKATIMIZDA YASHIL IQTISODIYOTNI JORIY ETISH HOLATI VA ASOSIY YO'NALISHLARI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 9, 85–87.
27. Turg'unov, J. A. (2024). SANOAT KORXONALARINING ATROF-MUHITGA TA'SIRINI BAHOLASHDA EIA TIZIMINI JORIY ETISHNING XORIJ TAJRIBASI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 11, 33–36.
28. Rasulov, X. Y. (2024). O'ZBEKISTON TURIZM SANOATIDA MADANIY TURIZMNING O'RNI. *QO'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 12, 71–76. <https://doi.org/10.54613/ku.v12i.993>

**“HUDUDIIY RIVOJLANISHDA MEHMONDO'STLIK SANOATINING MATEMATIK
TAHLILI VA OPTIMALLASHTIRISH”**

XALILOV MURODILJON DURBEK O'G'LI

Andijon davlat texnika instituti, katta o'qituvchi. Andijon, O'zbekiston

E-mail: Xalilov.M.1993@mail.ru

KOMILJONOV BOBURJON KOMILJON O'G'LI

Andijon davlat texnika instituti, Asistent. Andijon, O'zbekiston

E-mail: komiljonovbobur33@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada Andijon viloyatida mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishdagi roli matematik modellar yordamida tahlil qilinadi. Maqolada mehmondo'stlik sanoatining iqtisodiy o'sishga, ish o'rinlari yaratishga, investitsiyalarni jalb qilishga va infratuzilmani rivojlantirishga ta'siri ko'rsatilgan. Matematik yondashuvlar, jumladan, lineer optimizatsiya, prognozlash modellari va narx talab tahlillari yordamida mehmondo'stlik sanoatini optimallashtirish va viloyatning iqtisodiy rivojlanishini qo'llab-quvvatlash imkoniyatlari o'rganilgan. Hududiy rivojlanishda mehmondo'stlik sanoatining ahamiyati, shuningdek, ekologik turizmni rivojlantirishning barqaror usullari keltirilgan. Maqola, matematik modellar asosida mehmondo'stlik sanoatini optimallashtirishning samaradorligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: mehmondo'stlik sanoati, hududiy rivojlanish, matematik modellar, optimallashtirish, prognozlash.

Kirish: Mehmondo'stlik sanoatining hududiy rivojlanishdagi roli. Andijon viloyatidagi mehmondo'stlik sanoati hududiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatadi. Ushbu soha viloyat iqtisodiyoti uchun muhim sektor bo'lib, ish o'rinlari yaratish, mahalliy infratuzilmani rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilishda katta ahamiyatga ega. Mehmondo'stlik sanoatining turizm, mehmonxona xizmatlari, restoranlar va transport tizimlarining o'sishi viloyatning ijtimoiy va iqtisodiy holatini yaxshilashga yordam beradi. Hududiy rivojlanish uchun mehmondo'stlik sanoati nafaqat shahar markazlarida, balki chekka qishloqlarda ham yangi imkoniyatlar yaratadi.

Matematika yordamida mehmondo'stlik sohasini optimallashtirish orqali, samarali resurslarni taqsimlash, transport tizimini optimallashtirish va daromadni maksimal qilish mumkin. Linear optimizatsiya, prognozlash modellari va statistika usullari orqali mehmondo'stlik sanoatini samarali boshqarish va uning hududiy rivojlanishdagi rolini yanada oshirish mumkin.

Asosiy qism: Mehmondo'stlik sanoatining iqtisodiy ta'siri va matematik model. Mehmondo'stlik sanoatining iqtisodiy o'sishga ta'sirini matematik modellar yordamida tahlil qilish mumkin. Masalan, mehmonxona narxi va talabni modellashtirish orqali daromadni optimallashtirish mumkin. Bu yerda, narx va talab orasidagi bog'lanish quyidagi tarzda modellashtiriladi:

$$N(p) = 100 - 5p.$$

Bu yerda:

- $N(p)$ – mehmonlar soni;
- p – xonaning narxi.

$$R(p) = p \cdot N(p) = p \cdot (1000 - 5p) = 1000p - 5p^2.$$

Bu modelni ishlatib, siz narxning o'zgarishi bilan mehmonlar soni va daromad qanday o'zgarishini tahlil qilishingiz mumkin. Daromadni maksimal qilish uchun, hosila olish orqali maksimal nuqtani topish mumkin:

$$\frac{dR(p)}{dp} = 1000 - 10p = 0, \quad p = 100.$$

Demak, narxni \$100\$ qilib belgilash, daromadni maksimal qiladi. Bu misol mehmondo'stlik sanoatini optimallashtirishda matematik yondashuv qanday ishlashini ko'rsatadi.

Hududiy rivojlanish va turizmning ta'sirini prognozlash.

Bu bo'limda, Andijon viloyatidagi turizm sohasining o'sishini prognoz qilish uchun matematik usullarni qo'llash mumkin. Sayyohlar soni va turizmga sarflanadigan mablag'ni o'sish sur'atini hisoblashda eksponensial o'sish formulalaridan foydalanishingiz mumkin.

Misol:

- Sayyohlar sonining yillik o'sishini prognozlash:

$$N(t) = N_0 \cdot (1 + r)^t.$$

- N_0 – boshlang'ich sayyohlar soni;
- r – yillik o'sish sur'ati;
- t – vaqt (yil).

Misol uchun, agar o'tgan yilda sayyohlar soni 100,000 bo'lsa va yillik o'sish 10% ni tashkil etsa, kelgusi yil uchun prognoz qilingan sayyohlar soni:

$$N(1) = 100,000 \cdot (1 + 0.10)^1 = 110,00.$$

Shunday qilib, kelgusi yilda sayyohlar soni 110,000 bo'lishi kutilmoqda. Bu turizm sohasidagi o'sish prognozlarini matematik usullar yordamida tahlil qilishga yordam beradi.

Infrastruktura va transportni optimallashtirish.

Andijon viloyatidagi transport tizimini va mehmondo'stlik sanoatiga bog'liq bo'lgan infratuzilmani optimallashtirish uchun transport muammosini matematika yordamida modellashtirish mumkin.

Masala: Andijon viloyatida transport yo'nalishlarini optimallashtirish uchun linear optimizatsiya yoki transport muammosi modelidan foydalanishingiz mumkin. Bu model yordamida viloyatning turistik hududlariga optimal transport yo'nalishlarini va avtobuslar sonini aniqlash mumkin.

- **Linear optimizatsiya formulasi:** Har bir yo'nalish uchun xarajatlar va resurslarni optimallashtirish.
- Transport xarajatlarini kamaytirish va maksimal samaradorlikni ta'minlash uchun quyidagi formulalar qo'llaniladi:

$$\text{Min } C = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^m c_{ij} x_{ij}.$$

Bu yerda:

- C – umumiy xarajat,
- c_{ij} – i nuqtadan j nuqtaga borish xarajati,
- x_{ij} – i nuqtadan j nuqtaga ketadigan transport miqdori.

Misol:

Faraz qilaylik, Andijon viloyatida 3 ta transport markazi (A, B, C) va 3 ta turistik hudud ($H1, H2, H3$) mavjud. Quyidagi jadvalda har bir yo'nalish uchun xarajatlar (c_{ij}) va transport miqdori (x_{ij}) keltirilgan:

Yo'nalish	H1 (ohatlar)	H2 (ohatlar)	H3 (ohatlar)	Xarajatlar c_{ij}
$A \rightarrow H1$	x_{A1}	x_{A2}	x_{A3}	100
$A \rightarrow H2$	x_{B1}	x_{B2}	x_{B3}	150
$A \rightarrow H3$	x_{C1}	x_{C2}	x_{C3}	200

Qadamlar:

1. **Maqsad funksiyasini tuzish:** Bu yerda har bir yo'nalishning xarajatlarini minimallashtirishga harakat qilamiz. Maqsad funksiyasini quyidagicha yozamiz:

$$C = 100x_{A1} + 150x_{A2} + 200x_{A3}$$

2. **Cheklovlar:** Har bir markazdan ketadigan avtobuslar soni (masalan, a_1) va har bir hududga kerakli transport miqdori b_1 bo'yicha cheklovlar o'rnatiladi.

$$x_{A1} + x_{B1} = a_1$$

$$x_{A2} + x_{B2} = a_2$$

$$x_{A3} + x_{B3} = a_3$$

3. **Transport miqdori va xarajatlarni optimallashtirish:** Natijada, linear optimizatsiya yordamida transport yo'nalishlarining xarajatlarini minimallashtirish va optimal transport miqdorlarini aniqlash mumkin.

Yakuniy natija:

Linear optimizatsiya yordamida Andijon viloyatidagi turistik hududlarga optimal transport yo'nalishlarini va avtobuslar sonini aniqlash mumkin. Bu yondashuv, turistik hududlar orasidagi transport xarajatlarini minimallashtirish va viloyatning mehmondo'stlik sanoatining rivojlanishini qo'llab-quvvatlashga yordam beradi. Shuningdek, bu usul viloyatdagi turizm va transport infratuzilmasining barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun samarali vosita hisoblanadi.

Ekologik turizm va tabiatni saqlash.

Andijon viloyatidagi ekologik turizmni rivojlantirish va tabiatni saqlash borasida ham matematik modellarni qo'llash mumkin. Ekologik turizmning o'sishi bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy va iqtisodiy ta'sirni tahlil qilishda statistik metodlar va prognozlash usullari yordam beradi.

Misol:

- Ekologik turizmning ta'siri va barqaror rivojlanish.

Faraz qilaylik, Andijon viloyatidagi ekologik turizm hududlarida sayyohlar soni va atrof-muhitga bo'lgan ta'sirni prognozlash zarur. Buning uchun regressiya modeli yordamida sayyohlar soni va atrof-muhitga bo'lgan ta'sirni tahlil qilish mumkin.

Sayyohlar soni va atrof-muhitga bo'lgan ta'sir.

Faraz qilaylik, ekologik turizmni rivojlantirish bilan sayyohlar soni va ularning atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini o'rganmoqchimiz. Bu maqsadda quyidagi regressiya modelidan foydalanishimiz mumkin:

- $N(t)$ - sayyohlar soni,
- $I(t)$ - atrof-muhitga bo'lgan ta'sir (masalan, CO2 chiqindilari),
- t - vaqt (yil).

Regressiya modeli:

$$I(t) = \alpha \cdot N(t) + \beta.$$

Bu yerda:

- α - sayyohlarning atrof-muhitga bo'lgan ta'sirining koeffitsienti,
- β - boshlang'ich ta'sir darajasi.

Sayyohlar sonini prognoz qilish.

Sayyohlar soni o'sish sur'atini prognozlash uchun eksponensial o'sish formulasi qo'llanilishi mumkin:

$$N(t) = N_0 \cdot (1 + r)^t.$$

Bu yerda:

- N_0 - boshlang'ich sayyohlar soni,
- r - yillik o'sish sur'ati,
- t - vaqt (yil).

Ekologik turizmni rivojlantirishda barqaror yondashuv.

Matematik modellar yordamida ekologik turizmning ta'sirini boshqarish va atrof-muhitga ta'sirini minimallashtirish mumkin. Misol uchun, sayyohlarning CO2 chiqindilarini kamaytirish uchun quyidagi masalani ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, har bir sayyohning CO2 chiqindilari α koeffitsienti bilan bog'liq. Agar sayyohlar soni ortsa, atrof-muhitga bo'lgan ta'sir ham ortadi. Bu holatda, sayyohlar sonini

optimallashtirish va atrof-muhitga bo'lgan ta'sirni kamaytirish uchun quyidagi optimizatsiya masalasi tuziladi:

Maqsad funksiyasi:

$$\text{Min}(C_{CO_2}) = \alpha \cdot N(t).$$

Bu yerda C_{CO_2} - atrof-muhitga ta'sir (CO_2 chiqindilari).

Cheklovlar:

- Sayyohlar soni maksimal darajada bo'lmasligi kerak, ya'ni $N(t) \leq N_{\max}$ bo'lishi kerak.
- Ekologik muhofaza darajasi minimal bo'lishi lozim, masalan, $I(t) \leq I_{\max}$.

Natijada, bu optimizatsiya yordamida sayyohlar sonini shunday boshqarish mumkin, u atrof-muhitga bo'lgan ta'sirni minimallashtiradi va ekologik turizmni barqaror rivojlantiradi.

Masala: Ekologik turizmning o'sishi va atrof-muhitga ta'sirini prognoz qilishda **statistik tahlil** va **regressiya modellari** yordamida sayyohlarning tabiatga ta'siri va ularning sarf-xarajatlarini hisoblash mumkin.

Xulosa: Andijon viloyatida mehmondo'stlik sanoati hududiy rivojlanishga katta ta'sir ko'rsatmoqda. Matematik modellar yordamida mehmondo'stlik sanoatini optimallashtirish, turizm o'sishini prognozlash va transport tizimini samarali boshqarish mumkin. Ushbu yondashuvlar viloyatdagi iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash, investitsiyalarni jalb qilish, infrastruktura rivojlanishini ta'minlash va turizm sohasida barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Shuningdek, ekologik turizmni rivojlantirish orqali tabiatni saqlashga ham katta hissa qo'shiladi.

Bu matematik modellardan foydalanish orqali ekologik turizmning atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini prognozlash va sayyohlar sonini boshqarish mumkin. Bu, o'z navbatida, ekologik turizmni rivojlantirishda barqaror yondashuvni amalga oshirishga yordam beradi. Ekologik turizmning o'sishini va atrof-muhitga bo'lgan ta'sirini samarali boshqarish uchun statistik va matematik usullarni qo'llash juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sultanmurod, E., & Bobur, K. (2024). Kichik biznesga ta'sir qiladigan omillarning statistika tahlili. *University Research Base*, 735-736.
2. Shodiev, M. B. (2021). *Tourism industry and its role in regional development: A review of mathematical approaches*. *Journal of Tourism Studies*, 30(2), 88-95.
3. Murodiljon, K., Gulhayo, K., & Bobur, K. (2022). Ayrim kimyoviy reaksiyalarni tenglamalar yordamida yeching. *Biznesni boshlash va ochiq jamiyat Yevropa jurnali*, 2 (1), 45-48.
4. Komolova, G., Xalilov, M., & Komiljonov, B. Tenglamalar yordamida ba'zi kimyoviy reaksiyalarni yechish. *Yevropa biznes startaplari va ochiq jamiyat jurnali.-2022.-2-jild.-Yo'q*, 1(8), 45-48.
5. Abduljalilovna, D. T., & Durbek, K. M. (2023). Extreme Problems and Their Study in a Mathematics Course. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 113-118.
6. Ilyasov, R. F., & Tursunov, B. A. (2020). *Tourism and its economic optimization: Applying mathematical models to Andijan region*. *Applied Economics Journal*, 8(6), 67-78.
7. Комолова, Г., & Халилов, М. Stages of drawing up a mathematical model of the economic issue. *Journal of ethics and diversity in international communication. Испания-2022*, 60, 45-48.
8. Komolova, G., Khalilov, M., & Komiljonov, B. (2022). Solve Some Chemical Reactions Using Equations. *European Journal of Business Startups and Open Society*, 2(1).
9. Ergashov, S., Komiljonov, B., & Xalilov, M. Differensial tenglamalarni mexanika va fizikaning ba'zi masalalarini yechishga tadbiqlari. *Namangan muhandislik texnologiyalari instituti ilmiy-texnika jurnali*, 430-433.

10. Komolova G., Khalilov M., Komiljonov B. Solve Some Chemical Reactions Using Equations //European Journal of Business Startups and Open Society. – 2022. – T. 2. – №. 1.
11. Muradiljon, K., & Mashxuraxon, S. (2023). Application of the Theory of Linear Differential Equations to the Study of Some Oscillations.
12. Abduljalilovna, D. T., Murodiljon, K., Axrorbek, O., & Bexzod, T. (2023). Some studies of the flow of a two-phase medium with solid particles around bodies with a significant concentration of particles. *PEDAGOGICAL SCIENCES AND TEACHING METHODS*, 52.
13. Abduljalilovna, D. T., & Durbek, K. M. (2023). Extreme Problems and Their Study in a Mathematics Course. *American Journal of Public Diplomacy and International Studies (2993-2157)*, 1(10), 113-118.
14. Халилов, М. Д., & Комилжонов, Б. К. (2022). Differensial tenglamaga olib keluvchi ba'zi masalalar. *Journal of Advanced Research and Stability*.
15. Bobur, K. (2024). Application of Operational Calculus and Laplac Exchanges to Electrical Mechanics. *Miasto Przyszłości*, 55, 459-463.
16. Muradiljon, K., & Mashxuraxon, S. (2023). Application of the Theory of Linear Differential Equations to the Study of Some Oscillations. *Web of Synergy: International Interdisciplinary Research Journal*, 2(1), 60-65.

TA'LIM TURIZMINING MEHMONDO'STLIK SANOATIGA TA'SIRI: HUDUDIIY RIVOJLANISH VA XALQARO TAJRIBA

Jahongirov Kamoliddin Asomiddin o'g'li

O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi
o'qituvchi

kamoliddin6564@gmail.com

Annotatsiya: *Ushbu maqola ta'lim turizmining mehmondo'stlik sanoatiga ijobiy ta'sirini, xalqaro tajribalar va O'zbekiston uchun yaratilayotgan imkoniyatlar tahlil qilindi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ta'lim turizmi universitet shaharlari infratuzilmasini mustahkamlash, talabalar va akademik xodimlar uchun qulay sharoitlar yaratish, shuningdek, iqtisodiy o'sish hamda innovatsiyalarni rag'batlantirish orqali mehmondo'stlik sohasini sezilarli darajada rivojlantiradi. Xalqaro amaliyot, ayniqsa, Buyuk Britaniya, AQSh va Malayziya tajribalarida bo'lganidek, ilg'or yondashuvlar, strategik hamkorlik va investitsion salohiyatni oshirishga qaratilgan. Tezisdan O'zbekiston ta'lim turizmini rivojlantirish uchun zamonaviy strategik chora-tadbirlar, hamkorlik modellari va innovatsion yondashuvlar asosida tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu tavsiyalar mamlakatning global ta'lim va turizm bozoridagi raqobatbardoshligini yanada oshirishga xizmat qiladi.*

Kalit so'zlar: *ta'lim turizmi, mehmondo'stlik sanoati, akademik mobillik, turistik infratuzilma, madaniy almashinuv, xalqaro hamkorlik, akademik turizm, marketing, brendlash, global ta'lim tizimi, turizm menejmenti, talabalar almashinuvi, til turizmi, turistik klasterlar.*

Kirish: Ta'lim turizmi bugungi kunda global turizm sohasining muhim yo'nalishlaridan biri bo'lib, mehmondo'stlik sanoati bilan uzviy bog'liq. Bu turizm shakli ilmiy tadqiqotchilar, talabalar va professor-o'qituvchilarning o'qish va ilmiy faoliyat maqsadida boshqa davlatlarga safar qilishini o'z ichiga oladi. Ta'lim turizmi nafaqat o'quv muassasalarining rivojlanishiga, balki mehmondo'stlik infratuzilmasining kengayishiga ham xizmat qiladi.

Xalqaro tajribaga esa e'tibor qaratadigan bo'lsak, akademik turizm mehmondo'stlik sanoatiga bir qator iqtisodiy va ijtimoiy ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ali va boshqalar ta'kidlashicha, ta'lim turizmi xorijiy va mahalliy daromadlarni oshirish orqali infratuzilma rivojiga hissa qo'shadi hamda yangi ish o'rinlarini yaratish orqali iqtisodiy o'sishga xizmat qiladi⁶⁸. Shu bilan birga,

⁶⁸ Ali, F., Yasar, B., Khan, U., Ali, L., & Ryu, K. (2024). Can the compulsive use of e-learning lead to lower academic performance? The role of technology fatigue and technostress in hospitality and tourism students. *Journal of Hospitality*,

Aguinis va boshqalar akademik turizmning ijtimoiy taraqqiyotga qo'shayotgan hissasini qayd etadi⁶⁹.

Bizning fikrimizcha, ta'lim turizmi ilmiy almashinuv va global bilim maydonining kengayishi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, mehmondo'stlik sanoati uchun yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Bu jarayonda mehmonxonalar, turar joylar, transport va umumiy ovqatlanish xizmatlariga talab ortadi. Leening ta'kidlashicha, mehmondo'stlik sohasi ta'lim turizmi orqali malakali kadrlar bilan boyiydi, chunki ko'plab akademik dasturlar amaliy tajribaga asoslangan bo'lib, talabalarni mehmondo'stlik sanoatida ishlashga tayyorlaydi⁷⁰.

Bundan tashqari, Vaduva, Echevarria-Cruz va Takacs tadqiqotlarida ta'lim turizmining mehmondo'stlik sanoatidagi professional rivojlanishga ta'sirini o'rganib, bu jarayonda malakali kadrlar yetishtirishning ahamiyatini ta'kidlaydi⁷¹. Shu bilan birga, Kim va boshqalar mehmondo'stlik va turizm tadqiqotlari o'rtasidagi bog'liqlikni kuchaytirish zarurligini qayd etib, akademik turizm sohasi orqali ilmiy bilim va menejment strategiyalarini yanada rivojlantirish imkoniyatlarini ko'rsatadi⁷².

Xalqaro tajribaga esa e'tibor qaratadigan bo'lsak, ta'lim turizmining jadal rivojlanib borishi bir necha asosiy omillar bilan bog'liq. Birinchidan, globalizatsiya va xalqaro ta'lim dasturlarining ommalashuvi natijasida talabalar xorijda ta'lim olishni afzal ko'rmoqda. Masalan, Buyuk Britaniya, AQSh, Avstraliya va Kanada kabi davlatlar ta'lim turizmi bo'yicha yetakchi bo'lib, minglab xalqaro talabalarni jalb qilish orqali mehmondo'stlik sanoatini rivojlantirmoqda⁷³.

Ikkinchidan, akademik turizm mehmondo'stlik va turizm sohasidagi ta'lim dasturlarining takomillashuviga xizmat qilmoqda. Vaduva, Echevarria-Cruz va Takacs o'z tadqiqotlarida akademik dasturlarga mehmondo'stlik sohasida ishlash uchun zarur amaliy mashg'ulotlarni kiritish natijasida sanoat yanada yuqori malakali kadrlar bilan boyitilayotganini ta'kidlaydi⁷⁴.

Uchinchidan, tadqiqotchilar akademik turizmning ilmiy izlanishlarga ta'sirini ham qayd etmoqdalar. Kim va boshqalar ta'kidlashicha, ta'lim turizmi orqali turizm menejmenti va mehmondo'stlik sohasida ilg'or tadqiqotlar olib boriladi, bu esa sanoatning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi⁷⁵.

Asosiy qism: O'zbekistonda ta'lim turizmining rivojlanishi mehmondo'stlik sanoatining yangi bosqichga ko'tarilishiga turtki bo'lishi mumkin. Ayniqsa, Samarqand, Buxoro, Toshkent va Xiva kabi shaharlarda xalqaro talabalar uchun maxsus turistik infratuzilma yaratish ushbu sohaning barqaror o'sishini ta'minlaydi. Shu bois, O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish uchun xorijiy tajribalarni o'rganish va innovatsion yondashuvlarni joriy etish muhimdir.

Ta'lim turizmi nafaqat sayohat va ta'lim jarayonini o'z ichiga olgan soha, balki global miqyosdagi akademik va madaniy almashinuvning muhim vositasidir. Ushbu turizm yo'nalishi xalqaro universitetlar va ta'lim muassasalari o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish, ilmiy

Leisure, Sport & Tourism Education, 34, 100478.

⁶⁹ Aguinis, H., Kraus, S., Poček, J., Meyer, N., & Jensen, S. H. (2023). The why, how, and what of public policy implications of tourism and hospitality research. *Tourism Management*, 97, 104720.

⁷⁰ Lee, K. J. (2014). Attitudinal dimensions of professionalism and service quality efficacy of frontline employees in hotels. *International Journal of Hospitality Management*, 41, 140-148.

⁷¹ Vaduva, S., Echevarria-Cruz, S., & Takacs Jr, J. (2020). The economic and social impact of a university education upon the development of the Romanian tourism industry. *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*, 27, 100270.

⁷² Kim, Y., Savage, K. S., Howey, R. M., & Van Hoof, H. B. (2009). Academic foundations for hospitality and tourism research: A reexamination of citations. *Tourism Management*, 30(5), 752-758.

⁷³ Ali, F., Yasar, B., Khan, U., Ali, L., & Ryu, K. (2024). Can the compulsive use of e-learning lead to lower academic performance? The role of technology fatigue and technostress in hospitality and tourism students. *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*, 34, 100478.

⁷⁴ Vaduva, S., Echevarria-Cruz, S., & Takacs Jr, J. (2020). The economic and social impact of a university education upon the development of the Romanian tourism industry. *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*, 27, 100270.

⁷⁵ Kim, Y., Savage, K. S., Howey, R. M., & Van Hoof, H. B. (2009). Academic foundations for hospitality and tourism research: A reexamination of citations. *Tourism Management*, 30(5), 752-758.

izlanishlarni rag'batlantirish hamda bilim almashinuvini kengaytirishda muhim o'rin tutadi. **Xalqaro tajribaga** asoslansak, ta'lim turizmining rivojlanishi ko'p jihatdan mamlakatlarning iqtisodiy siyosati, ijtimoiy madaniyati va ta'lim tizimining jozibadorligiga bog'liq⁷⁶.

Quyidagi jadval ta'lim turizmining mehmondo'stlik sanoatiga bo'lgan ijobiy ta'sirini ko'rsatadigan asosiy omillarni aks ettiradi. Ushbu omillar mamlakatimiz iqtisodiy o'sishi, madaniy almashinuv va professional rivojlanishga bevosita hissa qo'shadi.

1-jadval

Ta'lim turizmining mehmondo'stlik sanoatiga ijobiy ta'siri omillari

Omil	Tavsif	Misollar / Ta'sir
Iqtisodiy o'sish	Investitsiyalar oqimi, daromadning oshishi va infratuzilmaning rivojlanishi	Mehmonxona va transport xizmatlarining rivojlanishi ⁷⁷
Ish o'rinlarining yaratilishi	Yangi ish joylarining ochilishi va bandlik darajasining oshishi	Yangi xodimlar, stajirovkalar va kasbiy malaka oshirish kurslari ⁷⁸
Madaniy almashinuv	Xalqaro muloqot va madaniy tajriba almashinuvi	Seminarlar, ko'rgazmalar, xalqaro festivallar ⁷⁹
Professional rivojlanish	Ta'lim va amaliy mashg'ulotlar orqali kadrlar malakasini oshirish	Amaliy treninglar, stajirovkalar va maxsus ta'lim dasturlari ⁸⁰

Yuqoridagi jadvalda ko'rsatilgan omillar ta'lim turizmining mehmondo'stlik sanoatiga qanday ijobiy ta'sir ko'rsatayotganini aniq aks ettiradi. Bu omillar orqali talabalar va akademik xodimlarga qulay sharoitlar yaratilishi, shuningdek, mintaqaviy iqtisodiy o'sish rag'batlantiriladi.

Bizning fikrimizcha, ta'lim turizmi – bu ta'lim maqsadida amalga oshiriladigan sayohat bo'lib, u nafaqat an'anaviy akademik ta'limni, balki turli seminarlar, konferensiyalar va madaniy o'rganish dasturlarini ham o'z ichiga oladi. Ta'lim turizmining asosiy turlari quyidagilardan iborat⁸¹:

– O'quv sayohatlari (Study Tours) – maktab va universitet talabalarining maxsus dastur asosida tashkil etilgan sayohatlari bo'lib, ular ilmiy hamda madaniy tadbirlar bilan uyg'unlashtiriladi.

– Akademik turizm (Academic Tourism) – professorlar, tadqiqotchilar va talabalar ishtirokida ilmiy anjumanlar, tadqiqot dasturlari hamda o'quv almashinuvlari tashkil qilinadi.

– Til turizmi (Language Tourism) – xorijiy tilni o'rganish uchun maxsus dasturlar bo'yicha tashkil etilgan ta'lim sayohatlari.

– Madaniy-ta'limiy turizm (Cultural Educational Tourism) – tarixiy va madaniy merosni o'rganish maqsadida uyushtirilgan dasturlar.

Bu turlar orasida o'quv sayohatlari va akademik turizm global ta'lim tizimida eng katta

⁷⁶ Talawanich, S., Jianvittayakit, L., & Wattanacharoensil, W. (2019). Following a wonderful overseas experience: what happens when Thai youths return home?. *Tourism Management Perspectives*, 31, 269-286.

⁷⁷ Santich, B. (2004). The study of gastronomy and its relevance to hospitality education and training. *International journal of hospitality management*, 23(1), 15-24.

⁷⁸ Yang, Z., & Cai, J. (2016). Do regional factors matter? Determinants of hotel industry performance in China. *Tourism Management*, 52, 242-253.

⁷⁹ Teng, C. C. (2013). Developing and evaluating a hospitality skill module for enhancing performance of undergraduate hospitality students. *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*, 13, 78-86.

⁸⁰ Yang, Z., & Cai, J. (2016). Do regional factors matter? Determinants of hotel industry performance in China. *Tourism Management*, 52, 242-253.

⁸¹ Li, G., Zhang, C., Xu, D., & Wang, L. (2024). How emotions catalyse learning through study tours: Evidence from Panda Ambassador. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 60, 322-333.

ahamiyatga ega⁸².

Bizning fikrimizcha, akademik mobillik xalqaro ta'lim tizimining muhim komponentlaridan biri bo'lib, u global bilim almashinuvi va kadrlar malakasini oshirishda muhim rol o'ynaydi. Bu jarayon ikki asosiy shaklda namoyon bo'ladi:

1. Akademik mobillik (Academic Mobility) – talabalar, tadqiqotchilar va professor-o'qituvchilarning xorijiy ta'lim muassasalarida qisqa yoki uzoq muddatli ta'lim olish yoki ishlash imkoniyati. Ushbu jarayon xalqaro filial universitetlar, qo'shma dasturlar va onlayn ta'lim orqali amalga oshiriladi⁸³.

2. Xalqaro talabalar oqimi (International Student Flow) – xorijiy davlatlarda ta'lim olish uchun kelgan talabalar sonining ortib borishini anglatadi. Bu jarayonni "daraja mobilligi" (degree mobility) va "almashinuv mobilligi" (exchange mobility) kabi shakllarga ajratish mumkin⁸⁴.

Xalqaro tajribaga esa asoslansak, akademik mobillik nafaqat talabalar uchun bilim olish imkoniyatini oshiradi, balki ular uchun global ish bozori talablari asosida kasbiy malaka va madaniy kompetensiyalarni shakllantirishga ham xizmat qiladi⁸⁵.

Bizning fikrimizcha, ta'lim turizmining mehmondo'stlik sanoatiga ta'siri bir nechta asosiy omillar bilan bog'liq:

– Iqtisodiy va ijtimoiy ta'sir – xalqaro talabalar oqimi mahalliy iqtisodiyot va mehmondo'stlik sanoatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Ular turar joy, transport, oziq-ovqat va boshqa xizmatlardan foydalangan holda mahalliy biznes rivojiga hissa qo'shadi⁸⁶.

– Sayohat cheklovlari va vizalar – davlatlarning ta'lim turizmiga qo'ygan qoidalari, viza olish jarayoni va turistik siyosati xalqaro ta'lim turizmining rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi⁸⁷.

– Madaniy va ta'limiy innovatsiyalar – xalqaro talabalarga yo'naltirilgan ta'lim dasturlarining sifati va moslashuvchanligi mehmondo'stlik sektorida ham yangi xizmat turlarining paydo bo'lishiga olib keladi.

Ko'plab davlatlar akademik turizmni rivojlantirish orqali o'zining mehmondo'stlik sektorini yanada rivojlantirishga harakat qilmoqda. Masalan, AQSh, Buyuk Britaniya va Avstraliya kabi mamlakatlarda xalqaro talabalar oqimi mahalliy iqtisodiyotga milliardlab dollar daromad olib kelmoqda⁸⁸ (Penny Wan, Wong & Kong, 2014).

Ta'lim turizmi nafaqat akademik rivojlanish, balki iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jihatdan ham global jarayonlarning ajralmas qismi hisoblanadi. Akademik mobillik xalqaro hamkorlikni mustahkamlab, ta'lim sohasining yanada integratsiyalashuviga olib keladi. Shu bilan birga, mehmondo'stlik sanoati ham ta'lim turizmining ta'sirida yangi xizmatlar va innovatsion yondashuvlarni joriy etmoqda.

Bizning fikrimizcha, ta'lim turizmida mehmondo'stlik sanoati muhim o'rin tutadi. Universitet shaharlaridagi infratuzilma va mehmonxona, transport, oziq-ovqat xizmatlari ta'lim turistlari uchun qulay muhit yaratishda hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Birinchi navbatda, universitet shaharlarida turizm infratuzilmasi muhim ahamiyatga ega.

⁸² Talawanich, S., Jianvittayakit, L., & Wattanacharoensil, W. (2019). Following a wonderful overseas experience: what happens when Thai youths return home?. *Tourism Management Perspectives*, 31, 269-286.

⁸³ Knight, J., & Motala-Timol, S. (2022). Mauritius as a developing education hub. *International Journal of Educational Development*, 93, 102646.

⁸⁴ Shields, R. (2019). The sustainability of international higher education: Student mobility and global climate change. *Journal of cleaner production*, 217, 594-602.

⁸⁵ Bhatara, T., & Khanna, P. (2024). Rationales behind international students' not selecting India as an education destination—An empirical investigation. *Research in Globalization*, 9, 100247.

⁸⁶ Wan, Y. K. P., Wong, I. A., & Kong, W. H. (2014). Student career prospect and industry commitment: The roles of industry attitude, perceived social status, and salary expectations. *Tourism Management*, 40, 1-14.

⁸⁷ Johnson, C., & Iunius, R. F. (1999). Competing in Central Eastern Europe: perspectives and developments. *International Journal of Hospitality Management*, 18(3), 245-260.

⁸⁸ Wan, Y. K. P., Wong, I. A., & Kong, W. H. (2014). Student career prospect and industry commitment: The roles of industry attitude, perceived social status, and salary expectations. *Tourism Management*, 40, 1-14.

Bunday shaharlar ta'lim muassasalari bilan birgalikda mehmondo'stlik sanoatining rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayrim olimlarning fikricha, mehmondo'stlik sohasidagi ta'lim dasturlari sayyohlik sohasi uchun kadrlar tayyorlashga ham ta'sir qiladi⁸⁹. Boshqa tadqiqotchilar esa ta'lim turizmi mahalliy iqtisodiyotga ijobiy ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydilar⁹⁰.

Ikkinchidan, talabalar va akademik xodimlar uchun mehmonxona va turar joy tizimi muhimdir. Ular uchun uzoq muddatli ijara uylari, xostellar va maxsus talabalar yotoqxonalari taklif etiladi. Bu yerda xizmat ko'rsatishning yuqori sifati ta'lim turistlarining qoniqish darajasiga ta'sir qiladi⁹¹.

Uchinchi jihat – restoranlar, transport va boshqa xizmatlar sektorining ahamiyati. Universitet shaharlarida oshxona va restoranlar talabalarga qulay narxlarda ovqatlanish imkonini beradi. Shuningdek, jamoat transporti va yo'l infratuzilmasi ham ta'lim turizmining rivojlanishida katta rol o'ynaydi⁹². Shunday qilib aytganda, mehmondo'stlik sanoati ta'lim turizmining ajralmas qismi bo'lib, universitet shaharlarida infratuzilma rivojlanishi uchun asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Quyidagi jadvalda O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish bo'yicha strategik yo'nalishlar va tavsiya etilgan chora-tadbirlar keltirilgan. Ushbu strategiyalar xalqaro tajribaga asoslanib, mamlakatimizning raqobatbardoshligini oshirishga qaratilgan.

2-jadval

O'zbekiston ta'lim turizmini rivojlantirish strategik yo'nalishlari

Yo'nalish	Strategik chora-tadbirlar	Kutilayotgan natija
Xalqaro hamkorlik	Chet el universitetlari filiallarini ochish, talabalar almashinuvi va grant dasturlarini yo'lga qo'yish	Xalqaro talabalar oqimini oshirish, bilim almashinuvining kuchayishi ⁹³
Turistik infratuzilmani rivojlantirish	Yangi mehmonxonalar, erkin iqtisodiy zonalar va turistik klasterlar yaratish, infratuzilmani modernizatsiya qilish	Sifatli xizmat ko'rsatish, investitsiyalarni jalb etish ⁹⁴
Ta'lim innovatsiyalari	Yangi ta'lim dasturlari, stajirovkalar va kasbiy rivojlanish markazlarini tashkil etish	Malakali kadrlar tayyorlash, soha ehtiyojlariga mos ta'lim muhitini yaratish
Marketing va targ'ibot	O'zbekistonni ta'lim turizmi markazi sifatida brendlash, xalqaro ko'rgazma va forumlarda ishtirok etish	Mamlakat imidjini yaxshilash, yangi auditoriyani jalb etish

Natijada, yuqoridagi strategiyalar va chora-tadbirlar ta'lim turizmi va mehmondo'stlik sanoatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi. Ularni amalga oshirish orqali O'zbekiston xalqaro maydonda o'zining raqobatbardoshligini oshirishi, iqtisodiy va madaniy rivojlanishda

⁸⁹ Santich, B. (2004). The study of gastronomy and its relevance to hospitality education and training. *International journal of hospitality management*, 23(1), 15-24.

⁹⁰ Qamruzzaman, M. (2023). Clean energy-led tourism development in Malaysia: Do environmental degradation, FDI, Education and ICT matter?. *Heliyon*, 9(11).

⁹¹ Yang, Z., & Cai, J. (2016). Do regional factors matter? Determinants of hotel industry performance in China. *Tourism Management*, 52, 242-253.

⁹² Teng, C. C. (2013). Developing and evaluating a hospitality skill module for enhancing performance of undergraduate hospitality students. *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*, 13, 78-86.

⁹³ Uralov, O. S. (2020). Internationalization of higher education in Uzbekistan. *Social Sciences & Humanities Open*, 2(1), 100015.

⁹⁴ Kantarci, K. (2007). Perceptions of foreign investors on the tourism market in central Asia including Kyrgyzstan, Kazakhstan, Uzbekistan, Turkmenistan. *Tourism Management*, 28(3), 820-829.

yangi bosqichga ko'tarilishi kutilmoqda.

Xulosa: Ta'lim turizmining rivojlanishi mamlakatning xalqaro nufuzi va iqtisodiy o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bu borada rivojlangan mamlakatlardan olinadigan tajribalar va O'zbekistondagi mavjud imkoniyatlarni tahlil qilish muhimdir.

Rivojlangan davlatlar, xususan, Buyuk Britaniya, AQSH va Malayziya ta'lim turizmining samarali modellarini ishlab chiqqan. Ushbu mamlakatlarda xalqaro talabalar uchun qulay muhit yaratilgan bo'lib, universitetlar mehmondo'stlik sanoati bilan uzviy bog'langan. Ayrim tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, bunday tizim investitsiyalarni jalb qilish, infratuzilmani rivojlantirish va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi⁹⁵.

O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish uchun bir qator imkoniyatlar mavjud. Birinchidan, mamlakatimizda xalqaro universitetlar filiallari ochilmoqda va chet elda o'qish uchun yoshlarga maxsus grantlar ajratilmoqda⁹⁶. Ikkinchidan, xalqaro tashkilotlar, jumladan, Osiyo taraqqiyot banki va YUNESKO O'zbekistondagi ta'lim loyihalarini qo'llab-quvvatlamoda⁹⁷. Uchinchidan, mamlakatning tarixiy va madaniy merosi ta'lim turizmi uchun katta salohiyatga ega⁹⁸.

Biroq, O'zbekiston hali ham ta'lim turizmi bo'yicha global raqobatda yetarlicha ishtirok eta olmayapti. Turistik infratuzilmaning rivojlanmagani va xizmatlar sifatining pastligi eng katta muammolardan biridir⁹⁹. Shu sababli, milliy va xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim-turizm klasterlarini yaratish va infratuzilmani yaxshilash zarur¹⁰⁰. O'zbekiston ta'lim turizmini rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega, ammo mavjud muammolarni hal qilish uchun uzoq muddatli strategiya talab etiladi¹⁰¹.

Bizning fikrimizcha, ta'lim turizmi mehmondo'stlik sanoatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. U talabalar va akademik xodimlar uchun turar joy, transport, restoran va boshqa xizmatlarga talabni oshiradi. Bu esa mehmondo'stlik sohasining o'sishiga va xizmatlar sifatining yaxshilanishiga turtki beradi.

O'zbekistonda ta'lim turizmini rivojlantirish uchun strategik yo'nalishlar ishlab chiqilishi lozim. Birinchi navbatda, xalqaro universitetlar filiallarini ko'paytirish va xorijiy talabalar uchun qulay sharoitlar yaratish kerak. Ikkinchidan, turistik infratuzilmani yaxshilash va ta'limga ixtisoslashgan yotoqxonalarni tashkil etish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ali, F., Yasar, B., Khan, U., Ali, L., & Ryu, K. (2024). Can the compulsive use of e-learning lead to lower academic performance? The role of technology fatigue and technostress in hospitality and tourism students. *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*, 34, 100478.
2. Aguinis, H., Kraus, S., Poček, J., Meyer, N., & Jensen, S. H. (2023). The why, how, and what of public policy implications of tourism and hospitality research. *Tourism Management*, 97, 104720.
3. Lee, K. J. (2014). Attitudinal dimensions of professionalism and service quality

⁹⁵ Thapa, B. (2012). Soft-infrastructure in tourism development in developing countries.

⁹⁶ Uralov, O. S. (2020). Internationalization of higher education in Uzbekistan. *Social Sciences & Humanities Open*, 2(1), 100015.

⁹⁷ Krouglov, A. (2017). Transforming higher education in Uzbekistan: From quality control to quality assurance culture. In *The rise of quality assurance in Asian higher education* (pp. 173-189). Chandos Publishing.

⁹⁸ Kantarci, K. (2007). Perceptions of foreign investors on the tourism market in central Asia including Kyrgyzstan, Kazakhstan, Uzbekistan, Turkmenistan. *Tourism Management*, 28(3), 820-829.

⁹⁹ Eitzenberger, F. J., & Thimm, T. (2024). Perception disparity: Analyzing the destination image of Uzbekistan among residents and non-visitors. *Journal of Destination Marketing & Management*, 34, 100946.

¹⁰⁰ ul Haq, I., Pardaev, J., Allayarov, P., & Munir, S. (2024). The impact of financial innovation and infrastructure on inbound tourism in Central Asia. *Journal of Open Innovation: Technology, Market, and Complexity*, 10(1), 100175.

¹⁰¹ Song, S., Chen, X., Hu, Z., Zan, C., Liu, T., De Maeyer, P., & Sun, Y. (2023). Deciphering the impact of wind erosion on ecosystem services: An integrated framework for assessment and spatiotemporal analysis in arid regions. *Ecological Indicators*, 154, 110693.

efficacy of frontline employees in hotels. *International Journal of Hospitality Management*, 41, 140-148.

4. Vaduva, S., Echevarria-Cruz, S., & Takacs Jr, J. (2020). The economic and social impact of a university education upon the development of the Romanian tourism industry. *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*, 27, 100270.

5. Kim, Y., Savage, K. S., Howey, R. M., & Van Hoof, H. B. (2009). Academic foundations for hospitality and tourism research: A reexamination of citations. *Tourism Management*, 30(5), 752-758.

6. Talawanich, S., Jianvittayakit, L., & Wattanacharoensil, W. (2019). Following a wonderful overseas experience: what happens when Thai youths return home?. *Tourism Management Perspectives*, 31, 269-286.

7. Santich, B. (2004). The study of gastronomy and its relevance to hospitality education and training. *International journal of hospitality management*, 23(1), 15-24.

8. Yang, Z., & Cai, J. (2016). Do regional factors matter? Determinants of hotel industry performance in China. *Tourism Management*, 52, 242-253.

9. Teng, C. C. (2013). Developing and evaluating a hospitality skill module for enhancing performance of undergraduate hospitality students. *Journal of Hospitality, Leisure, Sport & Tourism Education*, 13, 78-86.

10. Li, G., Zhang, C., Xu, D., & Wang, L. (2024). How emotions catalyse learning through study tours: Evidence from Panda Ambassador. *Journal of Hospitality and Tourism Management*, 60, 322-333.

11. Knight, J., & Motala-Timol, S. (2022). Mauritius as a developing education hub. *International Journal of Educational Development*, 93, 102646.

12. Shields, R. (2019). The sustainability of international higher education: Student mobility and global climate change. *Journal of cleaner production*, 217, 594-602.

13. Bhatara, T., & Khanna, P. (2024). Rationales behind international students' not selecting India as an education destination—An empirical investigation. *Research in Globalization*, 9, 100247.

14. Wan, Y. K. P., Wong, I. A., & Kong, W. H. (2014). Student career prospect and industry commitment: The roles of industry attitude, perceived social status, and salary expectations. *Tourism Management*, 40, 1-14.

15. Johnson, C., & Iunius, R. F. (1999). Competing in Central Eastern Europe: perspectives and developments. *International Journal of Hospitality Management*, 18(3), 245-260.

16. Qamruzzaman, M. (2023). Clean energy-led tourism development in Malaysia: Do environmental degradation, FDI, Education and ICT matter?. *Heliyon*, 9(11).

17. Uralov, O. S. (2020). Internationalization of higher education in Uzbekistan. *Social Sciences & Humanities Open*, 2(1), 100015.

18. Kantarci, K. (2007). Perceptions of foreign investors on the tourism market in central Asia including Kyrgyzstan, Kazakhstan, Uzbekistan, Turkmenistan. *Tourism Management*, 28(3), 820-829.

19. Thapa, B. (2012). Soft-infrastructure in tourism development in developing countries.

20. Krouglov, A. (2017). Transforming higher education in Uzbekistan: From quality control to quality assurance culture. In *The rise of quality assurance in Asian higher education* (pp. 173-189). Chandos Publishing.

**TURIZM: HINDISTONNING TARIXIY DUNYOSINI SAQLASH TURISTIK INFRATUZILMASINI
MADERNIZATSIYA QILISH TAJRIBASI****Mexmonaliyev Ulug'bek Erkinjon o'g'li**Qo'qon Universiteti Xalqaro turizm va
iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisilionslar9233@gmail.com**Qodirova Durdona**Qo'qon universiteti Mehmonxona va
turizmni boshqarish yo'nalish talabasidurdonaqodirova123@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezis Hindistonning tarixiy dunyosini saqlash va turistik infratuzilmani modernizatsiya qilish masalalarini tahlil qilishga qaratilgan. Hindistonning boy tarixiy merosi, o'zining qadimiy obidaları va madaniy joylari bilan dunyo miqyosida mashhurdir. Biroq, bu merosni saqlash va zamonaviy turizm ehtiyojlariga moslashtirishda bir qancha muammolar yuzaga kelmoqda. Tezisdagi Hindistonning tarixiy joylarini saqlashning dolzarbligi, saqlash siyosatlari, moliyaviy va ekologik qiyinchiliklar, shuningdek, turizm infratuzilmasining modernizatsiyasi jarayonlari batafsil tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Hindiston, Tarixiy meros, Turizm, Saqlash siyosati, Dunyo merosi, YUNESKO, Barqaror turizm, Ekologik saqlash, Madaniy meros,

Kirish. Hindistonning tarixiy obidalarini saqlash va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlash uchun zarur choralar ko'rsatiladi. Bu jarayonlarda, nafaqat ekologik va madaniy saqlash, balki turizm sohasining o'sishi hamda infratuzilma rivojlanishini ham hisobga olish kerak. Tezishda o'rganilgan metodologiyalar, jumladan sahada kuzatish, so'rovlar va intervyular, Hindistonning tarixiy obidalarini saqlash va turizm infratuzilmasini rivojlantirishda yuzaga keladigan muammolarni chuqur tahlil qilish imkonini berdi.

Hindistonning tarixiy merosini saqlash va turizmni barqaror rivojlantirishda yangi investitsiyalar, raqamli texnologiyalar va ekologik barqarorlikka asoslangan strategiyalar ishlab chiqish zarur. Tezistagi tavsiyalar, turizmni rivojlantirishda madaniy va ekologik muvozanatni ta'minlash, mahalliy jamoatlarni jalb qilish va xalqaro hamkorlikni kuchaytirishni ko'zda tutadi.

Bu ilmiy ish Hindistonning global turizm sanoatiga qanday hissa qo'shish mumkinligini va tarixiy joylarning saqlanishini ta'minlashni o'rganishga qaratilgan.

Hindistonning tarixiy merosi, uning turizm sanoatining asosiy poydevori bo'lib, nafaqat Hindiston, balki butun dunyo uchun muhim madaniy va tarixiy ahamiyatga ega. Hindistonning qadimiy obidaları, arxitekturası va madaniy merosi dunyo bo'ylab sayyohlarni o'ziga jalb qiladi. Shunga qaramay, bu obidalarni saqlash va turizm ehtiyojlariga moslashtirish borasida ko'plab qiyinchiliklar mavjud. Bugungi kunda Hindistonda turizm sanoati tez sur'atlarda rivojlanmoqda, ammo bu rivojlanishning davomiyligini ta'minlash uchun tarixiy joylarni saqlash va zamonaviy infratuzilma yaratish zarur.

Hindistonning tarixiy joylarini saqlash va turizm infratuzilmasini modernizatsiya qilish masalalarini tahlil qiladi. Tezisdagi asosiy maqsad – Hindistonning tarixiy dunyosini saqlash va zamonaviy turizm infratuzilmasi o'rtasidagi muvozanatni qanday ta'minlash kerakligini o'rganishdir. Ushbu masala global ahamiyatga ega, chunki Hindiston turizmi butun dunyo bo'ylab yirik iqtisodiy tarmoq bo'lib, uning rivojlanishi, saqlanishi va modernizatsiya qilinishi yanada dolzarb ahamiyat kasb etadi

Asosiy qism: Hindistonning tarixiy merosi, dunyoning eng qadimiy va boy madaniyatlaridan biri sifatida mamlakatning xalqaro nufuzini shakllantiradi. Turizm, Hindiston iqtisodiyoti uchun muhim sohalardan biri hisoblanadi va tarixiy obidalar bu sohada katta rol o'ynaydi. Har yili millionlab turistlar mamlakatning turistik markazlarini ziyorat qilib, o'zlarining madaniyatini va tarixiy boyligini o'rganadilar.

Hindiston qadimiy sivilizatsiyalar beshigi bo'lib, uning hududida turli davrlarga oid minglab tarixiy yodgorliklar mavjud. Bu obidalar nafaqat Hindistonning boy madaniy merosi, balki jahon tamadduni uchun ham katta ahamiyatga ega. Xususan, Taj Mahal, Qutb Minorasi, Ajanta va Ellora g'or ibodatxonalari, Konark Quyosh ibodatxonasi, Jaipur va Agra qal'alari kabi obidalar YUNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga kiritilgan va Hindistonning turizm salohiyatini belgilab beradi.

Hindistonning tarixiy obidalari quyidagi jihatlari bilan ajralib turadi. **Madaniy va san'at nuqtayi nazaridan ahamiyati** – O'ymakorlik san'ati, rang-barang naqshlar va arxitektura uslublari Hindiston tarixiy merosining jahon madaniyatiga qo'shgan hissasini namoyish etadi. **Iqtisodiy jihatdan hissasi** – Hindiston iqtisodiyotida turizmning ulushi sezilarli bo'lib, mamlakat yalpi ichki mahsulotining 9-10% ini tashkil qiladi. Tarixiy obidalar sayyohlik sohasining asosiy tayanchi hisoblanadi. **Ilmiy va arxeologik ahamiyati** – Arxeologik qazilmalar orqali o'rganilgan qadimiy shaharlar va ibodatxonalar Hindiston sivilizatsiyasi haqida muhim ma'lumotlar taqdim etadi. Hindistonning madaniy merosi ko'plab sayyohlarni o'ziga jalb qilgani sababli, bu joylarni saqlash va infratuzilmasini rivojlantirish mamlakat turizm sohasining barqarorligini ta'minlashda katta rol o'ynaydi.

